

«TASDIQLAYMAN»

Filologiya fakulteti

dekani: _____ p.f.n. S. Misirov

«___» _____ 2014 yil

Muhr

Namangan Davlat Universiteti

Filologiya fakulteti

Ingliz tili va leksika-stilistika kafedrası

**Bitiruv malakaviy ishini
tayyorlab topshirish rejasi**

Talabaning ismi, sharifi
va otasining ismi:

Jo'rayeva Gulnora Zuhridin qizi

Guruxi: 401

O'quv yili: 2013-2014

Mavzu:

“Jahon xalqlari hayotidagi o'ziga xos odat,
xatti-xarakatlar va ularni tarjiması masalasi”

Ilmiy rahbar:

f.f.n. dots. B. Xolmirzayev

Taqrizchilar:

1. Ichki taqriz:

f.f.n. Q. Sidiqov

2. Tashqi taqriz:

f.f.n.dots. M. Sulaymonov

Namangan davlat universiteti rektorining buyrug'i:

R E J A :

№	Ish mazmuni	Bajarish muddati
1.	Bitiruv malakaviy ish mavzuini tanlash	2013 yil 10 sentabr
2.	Mavzu rejasini tuzish	2013 yil 10-20 sentabr
3.	Manba to'plash va tahlil qilish	2013 yil 20 sentabr 2014 yil 10 yanvar
4.	BMI ni birinchi nusxasini tayyorlash va ilmiy rahbar, maslahatchiga ko'rsatish va o'qitish	2014 yil 25 yanvar
5.	Ilmiy rahbar ko'rsatgan kamchiliklarni tuzatish	2014 yil 1 martgacha
6.	Ilmiy rahbar va kafedra mudiri ishtirokida ilk muhokamadan o'tkazish	2013 yil 25 martgacha
7.	Kamchiliklarni tuzatish, annotasiya yozish	2014 yil 25 mart 10 aprel
8.	Taqrizlar olish va muhokamaga topshirish	2014 yil 10 aprel –25 aprel
9.	Kafedra yig'ilishida muhokama qilish	2014 yil 25 aprel – 10 may
10.	BMI ni olingan taqrizlar bilan birga muqovalangan holda kafedra mudiriga topshirish	2014 yil 10-15 may
11.	BMI ni himoya qilish	DAK jadvali bo'yicha

BMI 2014 yil 15 mayga qadar kafedra mudiri tomonidan qabul qilinadi.

Shu muddatgacha topshirmagan talaba Davlat Attestatsiyasiga qo'yilmaydi.

Talabaning imzosi: _____
 Ilmiy rahbar imzosi: _____
 Guruh rahbari imzosi: _____
 Kafedra mudiri imzosi: _____

"__" _____ 2014 yil

Eslatma

BMI Davlat standarti talablari asosida rasmiylashtiriladi. Xususan A4 formatda 21x29 sm xajm kattalikdagi oq qog'ozga chap tomondan 30 mm, o'ng tomondan 15 mm, pastki tomondan 25 mm qoldirilgan holda yoziladi.

BMI ning matni qogozning bir tomoniga har sahifaga 26-29 qator yoziladi.

Barcha satr osti izohlari tegishli sahifada keltiriladi. har bir bob, jumladan, kirish va xulosa qismlari hamda ilovalar yangi sahifadan boshlanadi.

Bobning nomi va matn orasi yaqqol ajrab turishi lozim, bobdagi sarlavhalar bobning tartib raqami bilan boshlanib, unda so'zlarning bo'g'in ko'chirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

BMI ning xajmi 10-15 ming so'zdan iborat bo'lib, uni talaba o'z dastxati bilan yozishi yoki kompyuterda bajarishi mumkin. Chizma, grafika, shrift va masshtablar amaldagi Davlat standartlariga mos holda qalamda bajarilishi lozim. Ko'zi ojiz va nogiron, dastxati o'qib bo'lmas darajada xunuk talabalarning malakaviy ishi kompyuter komp'yuterda bajarilishi mumkin. Chet tilida yozilgan BMIga davlat tilida annotatsiya yoziladi.

("O'zbekiston Respublikasi Oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risidagi Nizom". 4-5 betlar).

Bitiruv malakaviy ishi tayyor bo'lganidan keyin ilmiy rahbar ish haqida kengaytirilgan xulosa yozib, kafedra mudiriga taqdim etadi.

Xulosada quyidagilar qayd qilinishi shart:

- 1) Muallif o'z oldiga qo'ygan masalani qanchalik hal qilishga erishganligi;
- 2) Bajarilgan ishning bob va fasllari bo'yicha qisqacha tavsifi;
- 3) Maxsus adabiyotlar va birlamchi materiallardan foydalanganlik darajasi, unda ko'chirmachilik holati bor-yoqligi;
- 4) Ishning nazariy va amaliy ahamiyati;
- 5) Mavzudagi qaysi masalalar yaxshi yoritilgani, qaysilari sust tahlil etilgani yoki qolib ketganligi;
- 6) Bitiruv malakaviy ishining mustaqil bajarilish darajasi;
- 7) Bitiruv malakaviy ishdagi yakuniy fikrlarning ilmiy asoslanganligi va tavsiyalarning amaliy ahamiyati, talabga javob berishi;
- 8) Himoyaga qo'yish mumkin yoki mumkin emasligi.

Ilmiy rahbarning F.I, ilmiy darajasi va unvoni, imzo, sana

Bitiruv malakaviy ishi kafedraning may oyidagi yig'ilishida muhokamadan o'tgach va himoyaga tavsiya etilgach quyidagi ketma-ketlikda terilib, muqovalanadi va kafedra mudiriga topshiriladi

1. Zarvaroq
2. BMI ni tayyorlab topshirish rejasi
3. BMI ning annotatsiyasi
4. Ilmiy rahbar taqrizi
5. Ichki taqriz
6. Tashqi taqriz
7. Mundarija
8. Kirish

ESLATMA: Kirish qismida mantiqiy ketma-ketlikda quyidagi masalalar yoritilishi lozim:

- A) Mavzuning dolzarbligi va uning ahamiyati.
 - B) BMIning maqsadi va vazifalari.
 - D) Tanlangan ob'ektlar va tadqiqot usullari.
 - E) Ishdagi ilmiy yangiliklar va erishilgan natijalar.
 - F) Ishning amaliy ahamiyati.
 - E) BMIning tuzilishi haqidagi umumiy ma'lumotlar.
9. Asosiy qism
 10. Xulosa va tavsiyalar
 11. Ilovalar
 12. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Kafedra va dekanat Bitiruv malakaviy ishning jadvaldan chiqmay bajarilayotganligi hamda sifatini nazorat qilib turadi. Rejaning bajarilishi holati kafedraning dekabr va mart oylaridagi yig'ilishlarida muhokama qilinadi.

Ushbu topshiriq-reja NamDU Ingliz tili va leksika-stilistika kafedrasining "25" avgust 2013 yildagi yig'ilishida tasdiqlangan.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

Filologiya fakul'teti 5220100-filologiya (ingliz tili) ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi Jo'rayeva Gulnora Zuhridin qizining "Jahon xalqlari hayotidagi o'ziga xos odat, xatti-harakatlar va ularni tarjimai masalasi" mavzuidagi bitiruv malakaviy ishiga DAKning

XULOSASI

NamDU DAK OUMTV-ng bitiruv malakaviy ishini bajarishga qo'yiladigan talabalar haqidagi OO'MTVning 225-buyrug'i bilan tasdiqlangan Nizomga asosan bitiruvchining malakaviy ishi haqida quyidagi xulosaga keldi:

№	MEZON	Eng yuqori ball	To'plangan ball
1	Bitiruv malakaviy ishi uchun tuzilgan reja. Uning mavzuga mosligi, puxtaligi, muammoni qamrab olishi, uslubi	4 ball	
2	Matnda rejada ko'rsatilgan boblarning ajralib turi-shi, ishning estetik jihatdan ko'rinishi.	3 ball	
3	"Kirish" mazmuni, unda adabiyotlar obzorining berili-shi, mavzuning yangi va muhim tomonlarining ochib berilishi va vazifalarning qo'yilishi, ishning nazariy va amaliy ahamiyati bayoni.	5 ball	
4	Ishning yozilish uslubi, ravonligi, fikrni ifoda etish maxorati.	4 ball	
5	Ishdagi qismlarning o'zaro bog'liqligi	3 ball	
6	Keltirilgan misollarning soni, turi, ko'p tilliligi.	5 ball	
7	Adabiyotlardan, Internet materiallaridan foydalanish darajasi va ular asosida o'z fikrini, nuqtai nazarini bildirish.	6 ball	
8	Imlo savodhonligi	3 ball	
9	Uslubiy va Grammatik savodhonlik	3 ball	
10	Xusnixat va turli chizmalardan foydalanish	2 ball	
11	Adabiyotlarning to'g'ri ko'rsatilishi	2 ball	
12	Ishning ilmiyligi	20 ball	
13	Ishning amaliy ahamiyati	12 ball	
14	Xulosalarning ilmiylik darajasi	8 ball	
15	Ichki taqriz	3 ball	
16	Ichki taqriz	3 ball	
17	Tashqi taqriz	4 ball	
18	Himoya (ma'ruza) qilish	10 ball	
Ja'mi:		100 ball	

Eslatma: (har bir band bo'yicha aniqlangan ball jamlanadi va umumiy yig'ilgan ballning 100 ga nisbatan foizi chiqariladi).

Talabanning BMI bo'yicha to'plagan reyting bali ____%

DAK raisi:

A`zolar:

Kotib(a)

M.O`.

Sana: "___"_____2014 yil

Namangan davlat universiteti filologiya fakulteti 4-bosqich talabasi Jo'raeva Gulnora Zuhridin qizi tomonidan 5220100-filologiya (ingliz tili) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun "Jahon xalqlari hayotidagi o'ziga xos osat, xatti-harakatlar va ularni tarjimai masalasi" mavzusida bajargan Bitiruv malakali ishiga

Ilmiy rahbar hulosasi

Bugungi kunda respublikamizda yosh avlod tarbiyasi, barkamol farzandlar, yetuk mutaxassislar tayyorlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz rahbarligidagi ta'lim sohasidagi islohotlar bunga yaqqol misol bo'la oladi. Bu o'rinda yosh avlod tarbiyasi va bilimdonligini oshirishda albatta chet tillarning o'rni beqiyosdir. Qadim zamonlardan boshlab to hozirgi kunlargacha tarjimonlar g'oyat muhim vazifalarga kamarbastadirlar. Ularning sai-harakatlari bilan jahon halqlari madaniyatlari bir-biriga bog'lanadi. Halqlarni ma'naviy-ma'rifiy jihatlari birlashib yer yuzida rivojlanish sodir bo'ladi.

Qo'lingizda turgan ushbu BMI tarjimashunoslikni o'ta muhim va dolzarb mavzusi bo'lmish turli xalqlar urf-odatlar, ularning o'ziga xos jihatlari va xatti-harakatlarini tarjima qilish masalasiga bag'ishlangan. Alabatta, xoh u badiiy adabiyot tarjimai bo'lsin xoh ijtimoiy-siyosiy asarlar tarjimai yoinki medisina xatto tehnika oid tarjima bo'lsin asliyat muallifi uslubini tarjimada aks etishi muhim ahamiyatga egadir. Jo'raeva Gulnora ushbu ishni tayyorlashda zamonaviy adabiyotlar va internet materiallaridan keng foydalangan. Buni foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati va ishda foydalanilgan misollardan ham anglash mumkin.

Avvalo ishga kirish, asosiy qism, hulosasi va foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat reja tuzilgan va oldinga qo'yilgan maqsad aynan ana reja asosida amalga oshirilgan. Boblar va undagi fasllar mazmunan biri-birini to'ldirgan.

Ishning kirish qismida mavzuning bugungi kundagi dolzarbligi, ahamiyatli jihatlari, yangiligi hamda boshqa fanlar bilan aloqasi borasida batafsil ma'lumotlar berilgan. Birinchi bob "Badiiy asarlardagi milliy va mahalliy o'ziga hoslikni

ifodalovchi so'zlar va ularni tarjimada qayta yaratish" deb nomlanib, ushbu bob uch faslda yoritilgan. Unda badiiy asarlarda qo'llanilgan o'lchov va pul birliklarini ifodalovchi so'z va iboralar va ularni tarjimada berilishi masalasi borasida firlar bildirilgan. Ushbu bobning ikkinchi fasli jahon xalqlariga xos realiyalar va ularni tarjimada qayta yaratishning o'ziga hos hususiyatlari va ularning tarjimasi masalasini yoritishga bag'ishlangan

Ishning ikkinchi bobi "Turli tillarga mansub xos so'zlar va ularni tarjimasi masalasi" masalasiga bag'ishlagan bo'lib, ushbu bob uch faslda o'z ifodasini topgan. Ikkinchi bobda asosan turli xalqlarning urf-odatlarini va o'ziga hosliklarini tarjimada aks etishi hamda jahon xalqlariga xos bo'lgan milliy xususiyatlar va tarjimaviy muammolari kabi masalalar misollar orqali yoritilgan bo'lsa ikkinchi bobning uchinchi fasli badiiy asardagi milliy hodisalar va tushunchalarni tarjimada berilishi masalasiga bag'ishlangan. Ishning uchinchi bobi oldingi boblarda aytilgan fikrlarning mantiqiy davomi sifatida ishning to'laqonliligini ta'minlashga hizmat qilgan desak mobolag'a qilmagan bo'lamiz.

Shu bilan birga ishda ayrim kamchiliklar ham yo'q emas. Ishni ko'rib chiqish jarayonida ko'plab orfografik hatoliklarga duch kelish mumkin. Lekin bu ishning umumiy saviyasiga soya solmaydi.

Ushbu ish tarjimashunoslik, tilshunoslik va stilistika fanlari bo'yicha ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar uchun foydali manba bo'lib hizmat qiladi.

Men ilmiy rahbar sifatida talaba Gulnora Zuhridin qizi tomonidan 5220100-filologiya (ingliz tili) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun "Jahon xalqlari hayotidagi o'ziga xos osat, xatti-harakatlar va ularni tarjimasi masalasi" mavzusidagi ishini shunday ishlarga qo'yiladigan barcha talablarga javob beradi deb hisoblayman va uni ijobiy baholab himoyaga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar:

filologiya fanlari nomzodi B. Xolmirzaev

Namangan davlat universiteti filologiya fakulteti 4-bosqich talabasi Jo'raeva Gulnora Zuhridin qizi tomonidan 5220100-filologiya (ingliz tili) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun "Jahon xalqlari hayotidagi o'ziga xos osat, xatti-harakatlar va ularni tarjimasi masalasi" mavzusida bajargan Bitiruv malakali ishiga

T A Q R I Z

Yuksak intellektual salohiyatga ega yoshlarni tarbiyalab o'stirishga davlatimiz ayniqsa prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan katta e'tibor qaratilmoqda. Ma'lumki badiiy adabiyotning yoshlar tarbiyasidagi o'rni beqiyosdir. Jahon halqlari tillaridan amalga oshirilayotgan tarjimalarning badiiy adabiyotdagi salmog'i anchagina kengdir. Tarjimashunoslik ishlari mustaqil respublikamizda ayniqsa istiqloldan so'ng keng rivojlanib bormoqda.

filologiya fakulteti 4-bosqich talabasi Jo'raeva Gulnora Zuhridin qizning ushbu ishi tarjimashunoslik sohasiga oid bo'lib, turli xalqlarning urf-odatlar va o'ziga hosliklarini tarjimada aks etishi hamda jahon xalqlariga xos bo'lgan milliy xususiyatlar va tarjimaviy muammolari kabi masalalar ko'rib chiqishga bag'ishlangan. Talaba tomonidan ish uchun puhta reja tuzilgan va ish reja asosida batafsil yoritib berilgan.

Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, ishning yangligi, hajmi ko'rsatib o'tilgan. Ushbu ish mavzusini yoritish uchun uch bob, hamda sakkizta fasldan iborat reja tuzilgan. Ishning birinchi bobi uch faslda yoritib berilgan. Birinchi bob "Badiiy asarlardagi milliy va mahalliy o'ziga hoslikni ifodalovchi so'zlar va ularni tarjimada qayta yaratish" deb nomlanib, ushbu bobda badiiy asarlarda qo'llanilgan o'lchov va pul birliklarini ifodalovchi so'z va iboralar va ularni tarjimada berilishi hamda jahon xalqlariga xos realiyalar va ularni tarjimada qayta yaratishning o'ziga hos hususiyatlari kabi masalalar atroflicha yoritib berilgan.

Ikkinchi bobda " muallif tomonidan tasvirlangan xalqning urf-odatlar va o'ziga hosliklarini tarjimada aks etishi, jahon xalqlariga xos bo'lgan milliy

xususiyatlar va tarjimaviy muammolari hamda badiiy asardagi milliy hodisalar va tushunchalarni tarjimada berilishi kabi masalalarga to'htalib o'tilgan.

Uchinchi bobda milliy kolorit va tarjima muammolari masalasi ko'tarilgan bo'lib, unda badiiy asarning o'ziga xos xarakterli xususiyatlari va ularni tarjimada berilishi hamda tarjimada muallif tilini to'liq tushunishning aqamiyatlari masalalari misollar yordamida batafsil yoritib berilgan. Har bir bobga mufassal hulosalar qilingan. Ishning yakunida talabaning hulosasi va foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati joy olgan.

Ish ayrim juz'iy kamchiliklardan holi emas. Jumladan, orfografik hatoliklar uchrab turadi, ba'zi o'rinlarda foydalanilgan adabiyotlarga to'liq ishora qilinmagan.

Mening fikrimcha ushbu ish Bitiruv malakaviy ishlarlarga qo'yilgan talablarga to'la javob beradi. Men uni yahshi bahoga loyiq deb topaman va himoyaga tavsiya etaman.

Taqrizchi:

F.f.n. dots. M. Sulaymonov

Namangan davlat universiteti filologiya fakulteti 4-bosqich talabasi Jo'raeva Gulnora Zuhridin qizi tomonidan 5220100-filologiya (ingliz tili) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun "Jahon xalqlari hayotidagi o'ziga xos osat, xatti-harakatlar va ularni tarjimasini masalasi" mavzusida bajargan Bitiruv malakali ishiga

T A Q R I Z

Til jahon xalqlari madaniyatlari o'rtasidagi ko'priklar deb e'tirof etiladi. Tarjima esa tilning eng muhim omillaridan biri sifatida xalqlar, millatlar va elatlar o'rtasidagi do'stona voqe'likni yuzaga keltiradi. "Biz hammamiz badiiy so'zni, adabiyotda poeziyani, barcha janrlarda poetik ruhni yahshi ko'ramiz. Shuning uchun ham tarjima qilingan har bir so'z, har bir satr va asarga mehr bilan qaraymiz va undagi ayrim nuqsonlardan ranjiymiz" (A.Muhtor). Lekin tarjimada yana bir muhim narsa borki, u ham bo'lsa muallif nutqidagi o'ziga hosliklarni saqlab qolish, tarjima ishida ars ettira olishdir.

Filologiya fakul'teti ingliz tili yo'nalishi bitiruvchisi Jo'raeva Gulnoraning ushbu ishi tarjimasunoslik sohasida bo'lib, jahon xalqlariga xos bo'lgan milliy ususiyatlar, urf-odatlar tarjimada ifodalash muammosini tahlil etishga harakat qilingan. Tadqiqotchi ishni reja asosida yoritishga harakat qilgan. Mavjud adabiyotlar va internet ma'lumotlaridan foydalanish ishga chuqur ilmiy tus bergan. Ishda asosan tarjima jarayonida uchray turadigan milliylikka hos bo'lgan so'z va iboralar, diniy o'ziga hosliklar, mahalliy urf-odatlar hamda realiyalarni tarjimasida yuzaga keluvchi leksik, lingvistik va stilistik muammolar to'g'risida fikr yuritiladi. Bundan tashqari asosiy e'tibor muallif nutqidagi o'ziga hosliklarni tarjimada saqlab qolish masalasiga qaratilgan.

Men Jo'rayeva Gulnora Zuhridin qizi tomonidan 5220100-filologiya (ingliz tili) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun "Jahon xalqlari hayotidagi o'ziga xos osat, xatti-harakatlar va ularni tarjimasini masalasi" mavzusida yozilgan ishini ijobiy baholab himoyaga tavsiya etaman.

Taqrizchi:

Filolgiya fanlari nomzodi Q. Sidiqov

Mavzu: “Jahon xalqlari hayotidagi o’ziga xos odat, xatti-xarakatlar va ularni tarjimasi masalasi”

Reja

KIRISH

BIRINCHI BOB. BADIY ASARLARDAGI MILLIY VA MAHALLIY O’ZIGA HOSLIKNI IFODALOVCHI SO’ZLAR VA ULARNI TARJIMADA QAYTA YARATISH.

1.1. Badiiy asarlarda qo’llanilgan o’lchov va pul birliklarini ifodalovchi so’z va iboralar va ularni tarjimada berilishi.

1.2. Jahon xalqlariga xos realiyalar va ularni tarjimada qayta yaratishning o’ziga hos hususiyatlari.

1.3. Milliylikni ifodalovchi so’zlar va ularning tarjimada berilishi.

IKKINCHI BOB. TURLI TILLARGA MANSUB XOS SO’ZLAR VA ULARNI TARJIMASI MASALASI.

2.1. Turli xalqlarning urf-odatlar va o'ziga hosliklarini tarjimada aks etishi.

2.2. Jahon xalqlariga xos bo’lgan milliy xususiyatlar va tarjimaviy muammolari.

2.3. Badiiy asardagi milliy hodisalar va tushunchalarni tarjimada berilishi

UCHINCHI BOB. MILLIY KOLORIT VA TARJIMA MUAMMOLARI.

3.1. Badiiy asarning o'ziga xos xarakterli xususiyatlari va ularni tarjimada berilishi.

3.2. Tarjimada muallif tilini to’liq tushunishning ahamiyatlari.

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati

Kirish

Ma`naviy boy bo`lmagan halqning kelajagi buyuk bo`lishi mumkin emasligi hozirgi kunda barchaga birday ayon. Shu bois har qanday iqtisodiy qiyinchiliklar, ma`naviy boy bo`lgan, ruhi pok va iymoni but bo`lgan halqimiz uchun zarracha ham to`siq bo`la olmaydi. Istiqlol sharofati ila bir qator sohalarda misli ko`rilmagan yutuqlarga erishgan yosh mustaqil respublikamiz jahonga yuz tutdi, dunyo mamlakatlari orasida munosib o`rin egalladi va mavjud ilg`or rivojlangan mamlakatlar qatorida o`z bayrogini baland ko`tara oldi. Mustaqillikka erishgandan so`ng necha yillardan beri orzu bo`lib kelgan umidlarimiz amalga osha boshladi, buyruqbozlik va ko`r-ko`rona qilinadigan ishlarga chek qo`yildi, yoshlarning tarbiyasiga, ilm olishiga katta e`tibor berila boshlandi. Ko`plab iqtidorli yoshlar dunyoning bir qator rivojlangan mamlakatlarida bilim olish bahtiga musharraf bo`ldilar. Horijiy tillarni o`qitishga katta e`tibor berila boshlandi. Bu borada Muhtaram prezidentimizning qator farmonlari dasturul amal bo`lib hizmat qilmoqda. Bir so`z bilan aytganda dunyo haritasida O`zbekiston ham mustaqil davlatlar qatoridan o`rin egallaganligini isbotlamoqda. Muhimi, o`tmish qiyinchiliklarini boshidan kechirgan O`zbekistonimiz iqtisodiy rivojlanishning o`ziga hos bozor munosabatlariga o`tish yo`lini tanladi.

Mustaqil O`zbekistonni bozor munosabatlariga o`tishidagi o`ziga hos, o`ziga mos yo`lini tanlashda respublika prezidentining belgilab bergan tamoyillari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ya`ni, mustaqil O`zbekistonimiz o`z siyosiy, iqtisodiy va ma`naviy mustaqilligini osoyishta tinch yo`l bilan qo`lga kiritgan, dunyoning boshqa mamlakatlari orasida o`z mavqeini mustahkamlayotgan, tenglar davrasida teng bo`lishga kirishgan, zamonaviy bozor iqtisodiyotiga qadam qo`ygan, inson erkinliklarini himoya qiladigan chinakam demokratik jamiyat qurayotgan davlatdir. Taraqqiyot - hozirgi kunni kecha va erta bilan taqqoslash, zaruriyat va imkoniyatlariga hushyorona baho berish, shu asnoda aniq maqsadlar belgilash hamda ularga erishish yo`lida muayyan ishlarni amalga oshirish bilan bog`liq. Shunga ko`ra yurtimizning kelajagi ham ajdordlarimizdan meros bo`lib qolgan

bebaho boyliklar va ayanchli kechinmalarga ilmiy yondoshish, hozirgi voqealarni to'la-to'kis anglash, kelgusi rejalarini puhta belgilab olish, asosiysi, mehsatsevar halqimizning ishtiyoq va ishonch ruhini baland ko'tara bilishni talab qiladi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng ma'naviyat va ahloqiylikni qayta tiklashga e'tibor qilinmoqda. Chunki: birinchidan, Prezidentimiz Islom Abdug'anievich Karimov mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining o'z yo'nalishlari, shart-sharoitlarini asoslab berdi. Eng muhimi, insonparvar huquqiy-demokratik davlatni barpo etishning muhim shartlari belgilab berildi. Yangi jamiyat barpo etishda aholining milliy tarixiy turmush va tafakkur tarzidan, halq an'analari va urf-odatlaridan kelib chiqish zarurligi ko'rsatib berildi. Ma'naviyatimizni tiklash va uni rivojlantirish - yangi demokratik jamiyat qurishning muhim qonunidir. Ikkinchidan, Prezidentimizning "O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'li", "O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari" nomli risolalarida ma'naviyatning o'z mohiyati bilan kelajak poydevori ekanligi atroflicha asoslab berildi. Mana shunday dasturlar asosida yosh mustaqil O'zbekistonimiz o'z kelajagi tomon rivojlanib bormoqda.

Yuqorida biz, qisqacha bo'lsada, yosh mustaqil respublikamiz erishgan bir qator yutuqlar va mustaqillikdan keyin amalga oshirilgan savobli ishlar haqida to'htalib o'tdik. Bu ishlarning asosida Muhtaram prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan dasturlar va rejalar yotadi.

Mavzuning dolzarbligi. Yosh mustaqil respublikamiz jahonga yuz tutayotgan bir paytda ilm-fan sohasidagi yutuqlar ham quvonarli bir holdir. Bu borada badiiy, siyosiy-publitsistik asarlar o'zbek tilidan horijiy tillarga yoki uning aksi o'laroq, horijiy tillardan o'zbek tiliga ko'plab tarjima ishlari amalga oshirilmoqda. Tadqiqotimiz mavzusi "Badiiy asarlar tarjimasida milliy o'ziga hosliklarni ifodalanishi" bo'lib, ushbu ilmiy ishni olib borish jarayonida ko'plab o'zbek va horijiy adabiyotlardan, internet ma'lumotlaridan va terminologik lug'atlardan keng foydalanildi.

O'zbek halqi asrlar davomida benihoya boy, hilma-hil og'zaki va yozma adabiyot namunalari yaratdi. O'zbek oq'zaki va yozma adabiyoti, adabiy tili va adabiyotshunoslik taraqqiyoti natijasida o'tmishda juda ko'p adabiyotshunoslik terminlari shakllandi. Bu adabiyotshunoslik terminlarining takomilida adabiy aloqalar salmoqli o'rin egalladi desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

Qisqa qilib aytadigan bo'lsak mavzuni yoritish mobaynida tarjima jarayonida muallif nutqi, uslubi, va asliyat matnida qo'llanilgan milliylikimizga hos so'z va iboralarni tarjimada aks etishini ko'rib chiqdik. Yuqorida aytganimizdek, milliylikimizga hos bo'lgan so'z va iboralar, hikmatli so'zlar (aforizmlar) badiiy adabiyotda katta, muhim ahamiyatga ega va ularni tarjimada qay darajada aks etishi va bu yo'lda mavjud tarjima tamoyillaridan foydalanish yo'llari va ularning tadqiqi foydadan holi emasligi mavzuimizning dolzarbligidan dalolat berib turadi.

BMI orqali ilgari o'rganilgan va bizga qadar oltin meros bo'lib qolgan badiiy adabiyot durdonalari, milliy hos so'zlar, hikmatli so'zlarning adabiy jarayonda tutgan o'rni va tarjimada berilishini nazariy jihatdan o'rganib tahlil etishga baholi qudrat urinib ko'rdik. Va buni muvaffaqiyatli chiqishi, natijada biror ma'no-mazmunga ega bo'lgan kichik bir ilmiy izlanish yaratishni tadqiqotimizning asosiy bosh maqsadi qilib oldik.

Tadqiqot yangiligi sifatida shuni e'tirof etishimiz mumkinki, mavjud o'zbek halqiga taalluqli bo'lgan hos so'zlar, muallif nutqi, milliylik bilan to'la sug'orilgan aforizmlarni ingliz tilida qanday jaranglashini oliygohda tarjima nazariyasidan o'rgangan bilimlarimizga tayangan holda nazariy jihatdan tahlil etdik.

Tadqiqot maqsadi. Tadqiqot ishimizda tarjimachilik tarihi va rivojlanish bosqichlarini o'rganish, badiiy adabiyotda milliy o'ziga hosliklarni tarjimasi masalasini ko'rib chiqish, tarjima tamoyillarini aniqlash haqida nazariy hulosalar chiqarishni asosiy maqsad qilib qo'yganmiz.

Tadqiqot vazifalari. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar qo'yilgan:

- O'zbekistonda badiiy asarlar tarjimalari tarihi hamda hususiyatlarini ko'rsatish;

- Badiiy asarlar tarjimasida milliyligimizga hos bo'lgan birliklarning ahamiyati va ularni tilda qo'llanishi, har bir halqning o'ziga hos hususiyatlarini tarjimada aks ettirish zaruratini misollar yordamida isbotlash;

- O'zbek milliy o'ziga hosligini jahon sahnasida tarjima orqali namoyon bo'layotganligi mutlaqo yangi soha ekanini ko'rsatish.

Tadqiqot ob`ekti va predmeti. Mazkur tadqiqotga badiiy adabiyotlarda qo'llanilgan milliy oziga hosliklarni ifodalovchi bir qator asarlar, "Tafakkur gulshani", G'. Salomovning "Tarjima nazariyasi asoslari", "Tarjima nazariyasiga kirish" kitoblari hamda internet yangiliklari hisoblanadi. Bundan tashqari mustaqillik davrida ijtimoiy-siyosiy sohada yaratilgan asarlar, hususan, Prezident Islom Karimov qalamiga mansub "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asarining Buyuk Britaniyada nashr qilingan inglizcha tarjimasi, uning O'zbekistonda V. Pogorel'skiy tomonidan o'girilgan inglizcha va ruscha nashri asosiy manba qilib olindi. Amalga oshirilgan tarjimalarni aslyat bilan chog'ishtirish jarayonida bir qator o'zbek tarjimashunos olimlarining monografiya, maqola va ilmiy tadqiqot ishlaridan foydalanildi.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqotni yozish jarayonida qiyosiy-tipologik va jamlangan dalillarni tahlil qilishda qiyoslash, tasniflash metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalaridan badiiy asarlarni tillarga, jumladan, ingliz tiliga tarjima qilishga oid darslik va qo'llanmalar yaratishda, bakalavr hamda magistrlar uchun mahsus kurs va seminarlar tashkil etishda, amaliy mashg'ulotlarni olib borishda, BMI hamda magistrlik dissertatsiyalari yozishda, shuningdek, oliy o'quv yurtlarida tarjima nazariyasiga oid fanlar bo'yicha dars mashg'ulotlari olib borishda hamda ma'ruza matnlari tayyorlashda, shu sohaga oid ilmiy tadqiqot ishlarida foydalanish mumkin.

BMI tuzilishi va hajmi. Ish kirish, uch bob, sakkizta fasl, hulosasi hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat.

I Bob.

Badiiy asarlardagi milliy va mahalliy o'ziga hoslikni ifodalovchi so'zlar va ularni tarjimada qayta yaratish.

1.1. Badiiy asarlarda qo'llanilgan o'lchov va pul birliklarini ifodalovchi so'z va iboralar va ularni tarjimada berilishi.

Ko'p o'rinlarda aslyatdagi so'zning mahalliy va milliy o'ziga hoslikni ifodalovchi so' va iboralar tarjimda transliteraciya usuli orqali o'girilishi mumkin. Lekin ayrim hollarda broadbill - mech ryiba - qilich baliq, flying fish - letuchaya ryiba - uchar baliq, sucking fish - prilipala - elim baliq singari ruschaga va o'zbekchaga bemalol tarjima qilinadigan baliq nomlari mavjudligini ko'ramiz.

Dengizchilik va baliqchilikka oid yuqoridagi so'zlarni transliterasiya va transkripsiya qilib ruschaga va ruschadan o'zbekcha matnga kiritilishi ko'p hollarda o'zbek kitobhoni uchun qator qiyinchiliklar tug'diradi. Masalan, baliq nomlarini ifodalovchi 11 ta atama o'zbek kitobhonlari uchun umumiy tushuncha bo'lgan "baliq"ni ifodalaydi holos. Baliq ovi bilan muntazam shug'ullanuvchi baliqchilargina makrel - bonito balig'idan nimasi bilan farq qilishini tushunishi mumkin. Ho'sh, bu o'rinda o'zbek tarjimoni baliqlar nomini ifodalovchi atamalarni to'g'ridan to'g'ri transliterasiya bilan berib to'g'ri qilganmi, yoki ularni matn ichida yoki matn ostida izohlash kerakmidi. Bizningcha ohirgi yo'l eng to'qri usul bo'lib, o'zbek kitobhonining bu mavzuga oid dunyoqarashini, tushunchalarini kengaytirib, bu bilan asarning g'oyaviy mazmunini chuqurroq anglashga yordam bergan bo'lardi. Qolaversa, matnda realiyalarning izohsiz ishlatilishi kitobhonni ko'p chalg'itishini, u yoki bu so'z ma'nosini bilib olish uchun lug'atlarga murojaat qilishga majbur qilishligini unutmasligimiz lozim. Shunday ekan, transliterasiya orqali berilgan so'z izohlanmasa, tushuntirilmasa bunday transliterasiyani asossiz deb atash mumkin. Asosli transliterasiya kitobhon tasavvurini boyitadi, nutq boyligini, dunyoqarashini kengaytiradi. Bunday so'zlar o'z navbatida tarjima tilini ham boyitishga keng yo'l ochadi. Aslyatda uzunlik va og'irlik o'lchovlari

tushunchalarini bildiruvchi dyujina, fut, funt, yard, dyuym, sajen so'zlari o'zbekchaga ruscha variantlar orqali transliterasiya usulida kiritilgan, chunki ularning o'zbekchada funksional ekvivalentlari mavjud emas, shu sababli ularni o'zbek tilida to'g'ri satr ostida izohlash bu o'rinda eng ma'qul usuldir. Bu bilan asardagi lokal kolorit ham saqlanadi. Masalan, ularni yuqoridagidek izohlarini matn ostida berish mumkin. Ruscha matndan tarjimada ko'p hollarda bu usulga rioya qilganini ko'ramiz. Biroq, ayrim o'rinlarda bunday realiyalarning beo'rin "o'zbekchalashtirilishiga" guvoh bo'lamiz.

Masalan:

There was a sudden deep of seven hundred fathoms (p.47)

Дно в этом месте круто опускается на семьсот морских саженей (с.15)

Bu yerda chuqurlik deyarli yetti yuz dengiz sarjini miqdorida tikkasiga tushib boradi (16 b.).

Ma'lumki "morskaya sajen" atamasi 1,83 sm. uzunlik o'lchovini ifodalaydi. O'zbek tilida u "bir quloq", "ikki metrcha" kabi shartli muqobillar orqali berilishi mumkin. Tarjimon esa iqtibosda "sajen" 2 m 13 sm uzunlik o'lchovini ifodalashini ko'rsatgani holda, gap "morskaya sajen" - "dengiz sarjini" haqida ketayotganligini e'tibordan soqit qilgan va muallif nazarda tutgan asliyatdagi dengiz chuqurligini bir muncha sayozlashtirilgan. O'zbekcha "sarjin" so'zi esa "saralanib tahlangan o'tin uyumi" ni anglatadiki, bu so'zning sarjin so'zi bilan mutlaqo aloqasi yo'q.

Huddi shunday hatolikni og'irlik o'lchovi inglizcha va ruscha "funt" so'zini o'zbekcha "qadoq" so'zi bilan almashtirishganida ham ko'ramiz.

He'll make a beautiful bait. He'll weight ten pounds (p.54)

Из него выйдут прекрасная наживка. Вес в нем десять фунтов, не меньше.

Undan ajoyib ho'rak chiqadi. O'ziyam o'ldim deganda o'n qadoqdan kam emas. Aslida bu o'rinda tarjimon "funt" so'zini ishlatib, asliyatdagi milliy koloritni saqlaganida va matn ostida unga iqtibos berganida yahshi bo'lardi. Tashqi ko'rinishdan "qadoq" so'zi "funt" so'ziga funksional ekvivalent bo'la olsa ham, inglizcha 1 funt 409 grammga teng ekanligini, qadoq esa 450 gramm oqirlik o'lchoviga teng ekanligini va bu bilan muallif maqsadini kitobhonga aniq yetkazsa

ma`qul bo'lardi. 30,5 sm uzunlik o'lchovini ifodalovchi "fut" so'zi esa izohsiz qoldirilganligi sababli, kitobhonda "funt" va "fut" so'zlari ifodalagan ma`nolar haqida bir hil tushuncha uyg'otishi shubhasizdir:

...down there six hundred feet in that cold water in the dark (r.56)

Na glubine v shest` sot futov holodno i temno (s. 22)

Olti yuz fut chuqurlikda suv juda ham sovuq va qop-qorong'i bo'ladi (25 - 26 b.)

95 sm uzunlik o'lchovini ifodalovchi "yard" so'zi iqtibosda izohlangan holda, 25,5 mm. uzunlik o'lchovini bildiruvchi "inch" - "dyuym" so'zi izohsiz transliterasiya qilinganligi sababli, bu so'z qancha uzunlikni bildirishi kitobhonga noma`lum bo'lib qolgan:

The fish just moved away slowly and the old man could not raise him an inch (r.58)

...ryiba medlenno uhodila proch i starik ne mog priblizit` ee k sebe na dyuym.

Baliq erinmaygina ilgarilab borar, chol uni o'ziga bir dyuym ham yaqinlashtira olmasdi (27 b.)

Bunday holatlar aslyatda muallif bayon qilmoqchi bo'lgan fikr tarjimada kitobhonga yahshi yetib bormasligiga, asarning badiiy, madaniy saviyasi haqida noto'g'ri tasavvur uyg'onishiga sabab bo'ladi holos.

Rus tili orqali o'zlashtirilgan so'zlar va transkripsiya usuli tarjima tilida aslyat ifodalagan tushuncha mavjud bo'lmasagina ishlatilishi mumkinligi ta`kidlangan edi. Asar rus tilidan o'girilganligi uchun, yoki asar tarjima qilingan yillar rus tilining mavqei juda baland bo'lganligi uchun juda ko'p so'zlarning o'zbekcha muqobillari mavjud bo'lgani holda, ularning ruscha variantlari ishlatilganligiga guvoh bo'lamiz:

1. vilka - sanchqi
2. salfetka - qo'l sochiq, qo'l artgich
3. kolonka - suv o'tkazgich
4. kvartal - daha, mahalla
5. kurtka - issiq kiyim, po'stin

6. komanda - jamoa
7. programma - dastur
8. morojennoe - muzqaymoq
9. sutka - bir kecha - kunduz
10. lampa - chiroq
11. sud`ya - hakam
12. rak - saraton kasalligi
13. buksir - shatak
14. jabra - oyquloq
15. odehyal - yupqa ko`rpa
16. apteka -dorihona
17. turist - sayyoh
18. oficiant - oshhona hizmatchisi
19. refrejerator - muzlatgich
20. kofe - qahva
21. taverna - yemakhona, oshhona
22. tormoz - to`htatgich
23. gruppа - guruh
24. chayka - dengiz qushi, chag`alay
25. stul - kursi

Bu hol o`zbek adabiy tili me`yorlarining buzilishiga, tilni ataylab horijiy so`zlar bilan to`lg`azishga urinish deb baholanishi mumkin. Matn tarjimasida o`zbek adabiy tiliga butunlay singib ketgan, o`zbekcha funkisonal ekvivalentlari mavjud bo`lmagan, tarjimasiz ishlatilgan prujina, pressor, periskop, tros, korpus, chempion, motor, bochka, metal, konserva, stakan, samolyot, fonar kabi ruschadan o`zlashtirilgan so`zlarga ham duch kelamizki, ular inglizcha qanday ifodalanishiga qaramasdan, tarjimon ularni shu holicha qoldirishga majbur. Ular o`rniga yangi so`z - neologizm yasash, yoki izohlash usuli ham jumla ravonligiga, ifodadorligiga ham putur etkazgan bo`lard.

1.2. Jahon xaqqlariga xos realiyalar va ularni tarjimada qayta yaratishning o'ziga hos hususiyatlari.

Realiyalar va milliy o'ziga hoslikni ifodalovchi so'zlarni badiiy tarjimada qayta yaratish muammolarini o'rganishdan oldin, tarjimashunoslik nuqtai nazardan realiyalarning umumiy klassifikatsiyasi, milliy va mahalliy o'ziga hosliklarni ifodalovchi so'zlarga qanday leksik birliklarni kiritish mumkinligini jiddiy o'rganishga to'g'ri keladi. Bu masala nazarimizda bolgar olimlari S. Vlahov va S. Florinlarning yuqorida tilga olingan "Neperevodimoe v perevode" va I.K.Mirzaevning "Slova realii i voprosyi hudojestvennogo perevoda" kitobida atroflicha va chuqur o'rganilgan. S.Vlahov va S.Florinlar o'z tadqiqotlarida realiyalarga predmetlik tushunchasini ifodalash nuqtai-nazardan mahalliy sharoitga, tarixiy davrlarga mansubligi jihatdan yondoshib klassifikatsiya qilishni taklif qiladi. Ular predmetlik belgisiga muvofiq tushunchalarni ifodalovchi realiyalarni katta guruhlarga bo'lishadi:

1. Geografik va etnografik tushunchalarni ifodalovchi tushunchalar.
 - a) geografik tushunchalarni ifodalovchi realiyalarga fizik geografiyaning ob'ektlarini ifodalovchining (preriya, tarnado, cunami, step, pampa) tushunchalarini kiritadi
 - b) inson faoliyati bilan bog'liq bo'lgan geografiyaning ob'ektlarini ifodalovchi tushunchalar: palder, kriga, izovir, grid, arvik, chaltyik, djungli
 - v) endemik tushunchalarni ifodalovchi so'zlar: kivi, koala, gorodam, probka dubi

Olimlarning ta'kidlashlaricha geografik tushunchalarni ifodalovchi botanika, geografiya, zoogeografiya, poleogeografiyaga oid tushunchalar terminlarga yaqin turadi va ular orasidagi chegarani aniq belgilash mumkin emas.

Bunday tushunchalarni tarjimada berishda tarjimondan lug'atlarga, enciklopediyalarga qarash, tushuncha ifodalovchi bu so'zni tarjima tilida keng yoki tor doirada tarqalganlik darajasi, so'z ifodalovchi koloritni, kontekstni chuqur o'rganish talab qilinadi.

2. Etnografik realiyalar ham o'z navbatida quyidagi kichik guruhlarga bo'linadi:

I. Maishiy turmush tushunchalarini ifodalovchi realiyalar:

a) oziq-ovqat, ichimlik, ommaviy ovqatlanish korhonalari nomlarini ifodalovchi tushunchalar: shi, cheburek, pirog, spagetti, qimiz, bo'za, sidr, choyhona, taverna, bistro, hammom, sauna

b) kiyimlar, poyafzal turlari, bosh kiyimlari nomlarini ifodalovchi tushunchalar: burnus, kimano, sari, sombrero, kubanka, sala, paranji

v) turar joy, uy jihozlari (mebel) idishlar nomini ifodalovchi tushunchalar: izba, hata, yurta, vigvam, bungalo, gasienda, burjuyka (pechka)

g) transport vositalari va ularning haydovchilari nomini ifodalovchi tushunchalar: riksha, fiakr, troyka, katamaran, yamshik, kyebmen, gondoler

II. Mehnat faoliyatini ifodalovchi tushunchalar:

a) mehnatkashlar: peredovik, udarnik, brigadir, tabelshik, fermer, konsert, dvornik

b) mehnat qurollari nomini ifodalovchi tushunchalar: machet, pobyilka, guberka, lasso, garpun, bagor

v) mehnat tashkilotlari nomlarini ifodalovchi tushunchalar: kolhoz, rancho, latifundiya, glavka, agrokompleks, gildiya, korhona

III. San`at va madaniyatga oid tushunchalar

a) musiqa va raqs nomlari: kazachok, gopak, lezginka, tarantella, tanovor, polka

b) musiqa asboblarini ifodalovchi tushunchalar: balalayka, gitara, tamtam, nay, g'ijjak, dutor

v) folklorga oid tushunchalar: saga, byilina, runa, qasida, qazal, gastushka, vityaz, botir, latifa, yalla

g) teatrga oid tushunchalar: kabuki, po, komediya, arlekin

d) san`atga oid narsalar nomini ifodalovchi tushunchalar: ikebana, sino, makondo, chinte, halishe

e) ijro etuvchilar nomini ifodalovchi tushunchalar: trubadur, ohin, bahshi, kobzar, skoromoh

j) urf-odatlar va marosimlarni ifodalovchi tushunchalar: konfirmaciya, vendetta, tamada, maslenica, ramazan, aqiqa, prichastiya

z) bayramlar va halq o'yinlarini ifodalovchi tushunchalar: pasha (fish), qurbon hayit, lapta, gorodki, pripet, gorodoshnik, chillak

i) mifologiyaga oid tushunchalar: leshiy, pari, gnom, yalmog'iz kampir, uchar gilam, jar ptica

k) diniy tushunchalarni ifodalovchi so'zlar: lama, ho'ja, abbat, shaman, bonza, gugenot, darvish, haj, machit, pogoda, kostel, sinagoga, hoch

l) taqvim sanalarini ifodalovchi tushunchalar: vayshak, saraton, termidor, babe leto, savr, qish chillasi, javzo

4. Etnik ob'ektlarni ifodalovchi tushunchalar:

a) etnonimlar: apachi, bantu, kazak, bask, turk

b) hazil va kinoya ma'nosidagi millatni ifodalovchi laqablar: kacap, hohol, bosh, fric, gringo, yanki

v) yashash joyga mansub aholi nomlari: taraskon(lik), gobrova(lik), overn(lik), vodiy(lik)

5. O'lchov va pul birliklarini ifodalovchi tushunchalar:

a) og'irlik o'lchovlari: arshin, fut, sajen, yard, pud, botmon, akr, yarpan, qadoq, chorak

b) pul birliklari: lev, rubl, kopeyka, frank, santim, dinor, talant, luidor, sulkavoy, chaka, miri, chervonec

IV. Ijtimoiy-siyosiy tushunchalarni ifodalovchi realiyalar:

1. administrativ-hududiy tushunchalarni ifodalovchi so'zlar:

a) hududiy-boshqaruv tushunchasini ifodalovchi birliklar: gubernya, departament, kanton, voevodstvo, tuman, viloyat

b) aholi turar joylari nomlarini ifodalovchi tushunchalar: ovul, stanica, mahalla, daha, hutor, qishloq

v) aholi punktining ma'lum qismini ifodalovchi tushunchalar: arrondisselean, kreml, agora, ichkari, tashqari, hovli, ayvon

2. Hukumat organlari va lavozimlarni ifodalovchi tushunchalar:

a) quriltoy, senat, ijroqum, hokim, seym, дума, rada, veche, municipalitet, palata

b) kancler, hon, amir, shoh, faroan, lord, myer, sherif, vazir, getman, regent, ayatulla,

3. Ijtimoiy-siyosiy hayotga mansub tushunchalarni ifodalovchi so'zlar:

a) siyosiy tashkilotlar va siyosiy arboblarning nomlari: jerondistlar, sankyulot, Kukklus-klan, tori

b) vatanparvarlik va ijtimoiy harakat nomlari, vakillarini ifodalovchi so'zlar: partizan, gez, gayduk, karbonariy, maki, slavyanofil, frankofon, qizil hoch

v) ijtimoiy hodisalar va harakatlar va ularning vakillari: nyep, nyepman, lobbi, diler, menejer, marketing, stilyaga

g) unvon, daraja, titul (mansab)ni, murojaat shakllarini ifodalovchi so'zlar: bakalavr, magistr, agreje, knyaz, shahzoda, graf, baron, gercog, lord, syer, madam, miss, gerr

d) muassasalar nomini ifodalovchi so'zlar: obloko, zags, norkompros, hokimiyat

e) o'quv yurtlari, madaniyat muassasalari nomlarini ifodalovchi so'zlar: o'rta maktab, kollej, litsey, madrasa, tehnikum

j) irq, toifa va ularga mansub kishilar nomini ifodalovchi so'zlar: dvoryan, meshchan, yunker, brahman, vayshiya, samuray, barin, mujik, faqir

z) toifaga oid belgi va ramzlar: beshyulduz, yarim oy, yunon djek

4. Harbiy tushunchalarni ifodalovchi realiyalar:

a) qism nomini bildiruvchi so'zlar: legion, falanga, o'rda, legiya, kogorta, lashkar, qo'rboshi

b) qurol yaroqni ifodalovchi so'zlar: arbalet, arkebuza, mushket, yatagan, fau, katyusha, hanjar, stilet, finka:

v) harbiy kiyim aslahalarni ifodalovchi so'zlar: shlem, temir qalpoq, kolguga, dubilqa, bronjilet, gimnasterka, mundir, kitel, bushlat, shnel

g) harbiy hizmatchilar nomlarini ifodalovchi so'zlar: ataman, yasavul, o'nboshi, yuzboshi, sardor, lashkarboshi, praporshik, gardemarin, yanichol, unter, fyaldfefel, dragun, kirasir

Bolgar olimlari S. Vlahov va S. Florinlar taklif qilgan bu klassifikasiyadan dengizchilikka, baliqchilikka, qishloq ho'jaligi ekinlariga oid tushunchalarni ifodalovchi so'zlar qolib ketgan.

Masalan:

a) dengizchilikka (kemachilik) oid tushunchalarni ifodalovchi so'zlar: gavan, buhta, machta, rumpel, biteng, shkot, planshir, vahta, yunga

b) baliqchilikka oid tushunchalarni ifodalovchi so'zlar:

makrel, tunec, marlin, bonito, karakatica, umbrica, krivetka, galano

v) qishloq ho'jaligi va ekinlariga, o'simliklarga hos tushunchalar: bahori, lalmi, omoch, barona, sharbat suvi, oq oltin, momiq; qovun nomlari: asadi, amiri, bo'rikalla, odimi; Yovvoyi o'simliklar: kampirchopon, otquloq, tuyatavon, kiyik o't va h.

Bolgar olimlari realiyalarni mahalliy shart-sharoitlarga ko'ra klassifikasiya qilar ekanlar yuqorida nomlari keltirilgan tushunchalarni muayan millatga mansubligi, ularning boshqa tillarga o'girishdagi hususiyatlari nuqtai nazardan tasnif qilinishini alohida ta'kidlaydilar. Shunga ko'ra, ular realiyalarni bir til qobiqida muayan halqqa, territoriyaga mansub realiyalar va tarjima tillarida ishtirokiga ko'ra ichki va tashqi realiyalarga kirib borishi, keng ishlatilishiga ko'ra ularni milliy, lokal, mikrolokal va Internasional realiyalarga ajratish mumkin.

Milliy realiyalar odatda faqat asliyat tiliga mansub bo'lgan tushunchalarni ifodalaydi. Masalan inglizcha heath - hech narsa o'smaydigan botqoqlik joyi, ale - shaffof ingliz pivosini, ispancha galanos - akulaning bir turini, karakatica, umbrica - dengiz baliqlarini, nemischa bossh - bosh nemislarning kinoyali laqabini, francuzcha fiacre - ot bilan tortiladigan engil aravasimon transport vositasini anglatadi. Shu jihatlari bilan ular bir millat yashaydigan territoriyaning ma'lum bir bo'lagida yashovchi aholining o'ziga hos tushunchasi bo'lsa, ular lokal, mikrolokal, harakterga ega bo'ladilar. Aynan mana shunday realiyalar tarjimada asliyat tilidagi bu tushunchani teran anglab olishlikni, shu joyga hos milliy, tarihiy, ijtimoiy siyosiy voqeliklardan yahshi habardor bo'lishlikni talab qiladi.

Internasional realiyalar ijtimoiy, siyosiy, madaniy aloqalar tufayli boshqa tillarga o'tib qolgan so'zlarni ifodalaydi. Ular bunday holda ham milliy, mahalliy koloritlarini saqlab qolishligi bilan harakterlanadi. Masalan, inglizcha cowboy - aslida "otliq bola" degan ma'noni anglatadi. Hozirgi paytda bu so'zlar ko'pgina tillarga "kovboy" shaklida o'tib, "qo'rquv bilmas", "avantyurist" - "sarguzasht ishqibozi" sifatida o'tgan. Ispancha "sombbrero" - oddiy shlyapa, bosh kiyimini ifodalovchi lokal realiya va u bizning tilimizga "girdlari keng shlyapa" ma'nosida o'tib Internasional lashgan.

Ijtimoiy hayotning muayan davriga hos realiyalar: zamonaviy va tarihiy realiyalarga bo'lib o'rganiladi. Shunga ko'ra badiiy asar tarjimasida bu faktor tarjimondan realiya ifodalagan tarihiy-arhaik ma'noni yahshi bilishlikni talab qiladi. Ko'pgina tarihiy realiyalar bizning davrimizga kelib arhaizmlarga aylanib qolgan. Masalan: ruscha - pomeschchik, zemstvo, o'zbekcha - batral, qirol, quloq so'zlari

Tarjimashunoslikda zamonaviy va tarihiy realiyalarni aks ettirishda asliyat mansub bo'lgan mamlakatga hos tarihiy davrlarni, muhim ijtimoiy siyosiy voqealarni, adabiy oqimlar, muallifning qaysi oqimga mansubligini bilish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, o'zbek adabiyotidan biror horijiy tilga tarjimaga qo'l urgan mutarjim o'zbek halqining ijtimoiy-siyosiy tushunchalarini

- 1) IX-X asrlardan boshlab O'rta Osiyo Rusiya tomonidan bosib olingungacha bo'lgan davr
- 2) Sobiq SSR davrida vujudga kelgan realiyalar
- 3) O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi davrda tilimizdagi ichki va tashqi realiyalar nuqtai nazardan o'rganishlari mumkin.

Bolgar olimlari zamonaviy realiyalarni tasnif qilar ekanlar, ularni tanish va notanish realiyalarga bo'lib o'rganishni taklif qiladi.

Darhaqiqat iqtisodiy, madaniy, siyosiy aloqalar tufayli tilimizga kirib kelgan juda ko'p inglizcha, ruscha, francuzcha va hokazo realiyalar allaqachon o'zlashtirilgan so'zlarga, lug'at tarkibimizdan mustahkam o'rin olgan so'zlarga aylanib qolgan. Masalan:

Inglizcha - syer, miss, gudbay, hello:

Nemischa - gerr, biznes, biznesmen:

Francuzcha - bonjur, madam, madmazel, fiakr, pamidor, kupe, fermer:

Ruscha - soldat, kurtka, stakan, prujina, odeyal kabi so'zlar barcha o'zbeklarga tushunarli bo'lgan tanish leksikaga aylanib ketgan. Vaholanki, yaqindan beri tilimizga kirib kelgan diler, menejer, marketing, grinhol, uikend va hokazo so'zlar notanish so'zlar sifatida barchaga tushunarli bo'lmasligi mumkin.

Realiyalar klassifikatsiyasini chuqur o'rgangan surhondaryolik olim I. K. Mirzaev bolgar olimlarining fikriga qo'shilgan holda horijiy matbuot organlari nomlarini L Humanite, "Figaro" "Revue de Dieu - Monde" va halq an`analari, urf-odatlari, arhitektura yodgorliklari, maydon nomlarini, frazeologizmlarda ifodalagan hos ma`noli birliklarni ham realiyalar sifatida o'rganishni taklif qiladi.

E. Heminguyeyning "Chol va dengiz" asari asliyatida va rus tiliga qilingan tarjimasida biz quyidagi tip realiyalarga duch kelamiz:

I. Dengizchilikka, kemachilikka, baliqchilikka oid tushunchalarni ifodalovchi so'zlar:

- 1) harpoon - garpun - katta baliqlarni ovlashda ishlatiladigan metal yoki yog'och nayza
- 2) Tiller - rumpel - qayiq rulini aylantiradigan dastak
- 3) Mast - machta - kema yoki qayiqning elkanini tutib turish uchun hizmat qiladigan metal yoki yog'och ustuni
- 4) Thwart - banka - kema yoki qayiqdagi o'rindiq, skameyka
- 5) Marlin - marlin - baliq turi
- 6) Sardine - sardin - baliq turi
- 7) Dolphin - makrel - baliq turi
- 8) Squid - karakatica - baliq turi
- 9) Bonita - bonita - baliq turi
- 10) Albacore - albakore - baliq turi
- 11) Tuna - tunec - baliq turi

- 12) Jack - umbrica - baliq turi
- 13) Mako - mako - akula turi
- 14) Galano - galano - akula turi
- 15) Plankton - plankton - dengiz yo'sini
- 16) Sargass - sargass- dengiz yo'sini
- 17) Logger-head - karet - dengiz toshbaqasi
- 18) Trunk-back - lut - dengiz toshbaqasi
- 19) Deck - paluba, kema sahni
- 20) Rock - rif - elkanning arqon o'tkaziladigan teshigi
- 21) Watch - vahta - kemada navbatchilik, posbonlik vaqti
- 22) Side - bort - kema, qayiq usti
- 23) Bitt - biteng - kema yoki qayiqdagi uni arqon bilan qiryoqqa bog'lab qo'yish uchun o'rnatiladigan temir yoki yog'och g'o'la
- 24) Sheet - shkot - qayiq yoki kemandagi yurishini, yelkanlarni tortib turadigan arqoni
- 25) A man of war bird - fregat - dumi uzun, yirik tropik dengiz qushi
- 26) Trade wind - passat - tropiklardan ekvatorga esib turadigan quruq shamol
- 27) Gulfstream - Golfstrim - iliq oqim

Realiyalardan ko'proq atamalarga (terminlarga) yaqin turuvchi dengizchilikka, baliqchilikka oid lokal harakterga ega bu so'zlarni asliyatdan rus tiliga 1) traskripsiya va transliterasiya 2) rus tilida mavjud ana shunday ma'noli so'zlar orqali tarjimada berilganligini ko'ramiz. Masalan quyidagi so'zlar rus tiliga traskripciya va transliteraciya usulida berilgan:

1. harpoon- garpun - katta baliqlarni ovlashda ishlatiladigan metal yoki yog'och nayza
2. Marlin - marlin - baliq turi
3. Sardine - sardin - baliq turi
4. Bonita - bonita - baliq turi
5. Albacore - albakore - baliq turi
6. Mako - mako - akula turi

7. Galano - galano - akula turi
8. Plankton - plankton - dengiz yo'sini
9. Sargass - sargass- dengiz yo'sini
10. Gulfstream - Golfstrim - iliq oqim

quyidagi hollarda esa horijiy atamalarning rus tilidagi variantlaridan foydalanilgan:

1. Tiller - rumpel - qayiq rulini aylantiradigan dastak
2. Mast - machta - kema yoki qayiqning yelkanini tutib turish uchun hizmat qiladigan metal yoki yog'och ustuni
3. Thwart - banka - kema yoki qayiqdagi o'rindiq, skameyka
4. Dolphin - makrel - baliq turi
5. Squid - karakatica - baliq turi
6. Tuna - tunec - baliq turi
7. Jack - umbrica - baliq turi
8. Logger-head - karet - dengiz toshbaqasi
9. Trunk-back - lut - dengiz toshbaqasi
10. Deck - paluba, kema sahni
11. Rock - rif - elkanning arqon o'tkaziladigan teshigi
12. Watch - vahta - kemada navbatchilik, posbonlik vaqti
13. Side - bort - kema, qayiq usti
14. Bitt - biteng - kema yoki qayiqni arqon bilan qirg'oqqa bog'lab qo'yish uchun o'rnatiladigan temir yoki yog'och qo'la
15. Sheet - shkot - qayiq yoki kemaning yurishini, yelkanlarni tortib turadigan arqoni
16. A man of war bird - fregat - dumi uzun, yirik tropik dengiz qushi
17. Trade wind - passat - tropiklardan ekvatorga esib turadigan quruq shamol

Hulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, milliy realiyalarni tarjimada ifodalanishini o'rganish birinchidan badiiy asardagi milliy o'ziga hosliklarni ifodalash usullarini aniqlab tarjimonlar uchun amaliy, nazariy bilimlarini takomillashtirishga yordam beradi, ikkinchidan, bilvosita va bevosita tarjima jarayonida qo'lga kiritilgan boy tajribalarni umumlashtirishga, yo'l qo'yilgan hato

va kamchiliklarni aniqlab badiiy asarning g'oyaviy mazmunini chuqurroq anglanishiga olib keladi.

Milliy realiyalarni tarjimada berishning eng samarador usuli transkripsiya va transliteraciya bo'lib, u originaldagi hos so'zni to'liqroq ifodalash imkonini beradi. Transliteraciya usulidan odatda originaldagi milliy o'ziga hos tushuncha ifodalaydigan ma'no tarjima tilida mavjud bo'lmagan hollarda foydalanadi. Masalan, dengizchilikka oid rumpel, machta, shkot, gavan, bort, biteng, vahta kabi, baliqchilikka oid marlin, sardin, makrel, karakatica, bonita, albakore, tunec, umbrica, mako, galano kabi so'zlarning barchasi rus tili orqali o'zbek tiliga ham kirib kelganki, o'zbek tilida ularga mos ekvivalentlar mavjud bo'lmaganligi sababli, tarjimon ularni transliteraciya usulida berishga, matn ostida izoh berishga majbur. Ayrim olimlarning bunday so'zlarni Internasional lashgan leksika deb atab, ular tarjima tili boyligini oshirishga hizmat qilishligini alohida ta'kidlaydilar. Realialarni tarjimada ifodalagan stilistik funkciyasini to'g'ri ifodalashning muhim shartlaridan biri kontekstni to'g'ri tushunishdir. Chunki, realiyalar kontekstdagi funkciyasiga ko'ra turlicha stilistik ma'nolarni anglatishi mumkin. Masalan inglizcha "fathom" - ruscha "morskaya sajen" so'zini o'zbekchaga "dengiz sarjini" deb to'g'ri berib, tarjimon iqtibosda "dengiz sarjiniga" iqtibos bermasdan, balkim "sarjin" so'ziga iqtibos bergan va sarjin va dengiz sarjinlarining uzunlik o'lchovlari farqli ekanligiga ye'tibor bermagan tarjimon kitobhonga noto'g'ri tasavvur uyqotgan.

Shuningdek, uzunlik o'lchovi hisoblanmish "inch" - "dyuym" so'zining kontekst orqali qandaydir o'lchamni ifodalanishi tushunilsa ham, uni "bir tutam" deb o'girilishi originalda ifodalangan 25,5 mm. uzunlik o'lchovi haqida noto'g'ri tasavvurga olib kelgan. Ruscha va o'zbekcha tarjimalarda "Yanki" yutqazishi mumkin emas", "Klivlend Hindilari", "Detroit Yo'lbarzlari" kabi iboralar uchraydi. Ingliz kitobhoni bu atamalarni o'qiganidanoq, gap beysbol komandalarining nomlari ekanligini anglaydi. Bunday inglizcha jummalarni tarjima orqali bergan rus tarjimoniga ergashgan o'zbek tarjimoni ham iboralar anglatgan kontekstual

ma`nodan uzoqlashib ketgan, natijada o`zbek kitobhoni gap nima haqida ketayotganini qiyinchilik bilan anglashi mumkin.

O`zbek kitobhoni "Pahtakor" yutipti" deyilsa darrov milliy futbol jamoasi haqida gap ketayotganligini tushunadi. Biroq, "Yanki" yutqazishi mumkin emas" - deyilsa bu futbolmi, voleybolmi, beysbol jamoasimi noma`lum bo`lib qoladi. Shu sabab, inglizcha kontekstda qisqartirib berilgan ibora ma`nosini o`zbekchada so`z qo`shish yo`li bilan "Yankilar" beysbol jamoasi" deb o`girishga to`qri keladi.

Tarjimada ishlatilgan juda ko`p so`zlarning o`zbekcha muqobillari mavjud bo`lgani holda, ularning ruscha ekvivalentlaridan foydalanilganligi bu o`zbek adabiy tilining so`z boyligini ko`paytirish uchun emas, balki adabiy til meyorlarini buzilishiga olib kelishi mumkin. Masalan: vilka, programma, morojennoe, sutka, salfetka, refrejerator, tormoz, buksir, turist kabi

To`g`ri bunday so`zlar rus tilining ta`siri tufayli o`zbek kitobhonlariga ham tanish tushunchalarni ifodalaydi. Biroq, o`zbek adabiy tilida ular ifodalaydigan sanchqi, dastur, muzqaymoq, bir kun, qo`l sochiq, muzlatgich, to`htatgich, sayyoh kabi leksik birliklar mavjud bo`lgani holda ruscha atamalarni ishlatish g`aliz tuyuladi. O`zbek tiliga rus tili orqali kirib kelgan va o`zbekcha ekvivalentlari mavjud bo`lmagan tushunchalarni ifodalovchi hos so`zlar mavjud. Tarjimon ularni hech qanday izohsiz transliteraciya usulidan foydalanib o`zbekcha matnga kiritishga majbur. Masalan: prujina, ressor, korpus, motor, bochka, konserva, stakan va boshq.

Asar tarjimasida beysbol komandalarining nomlari inglizcha "The Indians", "The Tigers", "The Reds", "The white Sox (Socks)" ruschaga "Indeycyi", "Tigryi", "Krasnokojie", "Belyie chulki", dengizdagi chuqurlik nomi "the great well" ruscha "velikiy kolodec" - o`zbekcha "buyuk quduq" deb, diniy atama "Sacred Heart oq Jesus" ruscha "Bojaya serdca", o`zbekcha "Tangri qalbi" deb tarjima usulidan foydalanib, o`zbekchalashtirilgan realiyalarni ham ko`ramiz. Inglizcha realiyalarning ruschaga va o`zbekchaga bunday o`girilishi realiyalar ifodalagan milliy koloritni yo`qqa chiqarib qo`ygan. Fikrimizcha, ularni ruschada ham,

o'zbekchada ham inglizcha transliterაციyalarini berib, matn ostida izohlanganida ma`qulroq bo'lardi.

Asliyatda ifodalangan milliy realiyani tarjima tiliga tushunarli o'g'irish muammosi horojiy muhit va shart-sharoitlarni kitobhon oldiga ochiq oydin jonlashtirish mas`uliyatini yuklaydi.

Biroq, transliteraciya orqali berilgan so'z izohlanmasa, tushuntirilmasa, kitobhon tasvirlanayotgan voqea-hodisalar va so'zlar bayoniga tushunmay qoladi. Bu o'rinda transliteraciya qilingan so'z kontekst ichida tasvirlanib tushuntirilishi, ma`nosi qavs ichida berilishi, yoki matn ostida izohlanishi mumkin. Bunday transliteraciya asosli transliteraciya deyiladi. Asosli transliteraciya kitobhon tasavvurini boyitadi, nutq boyligini, dunyoqarashini kengaytiradi. Shunday qilib, realiyalar tarjima tilining boyishiga ham sabab bo'ladi. Bularning barchasi asliyatda ifodalangan realiyalarni kitobhon ko'z oldida aynan jonlantiradigan ifoda vositalarini vujudga kelishiga yordam beradi.

1.3. Miliylikni ifodalovchi soʻzlar va ularning tarjimada berilishi.

Asar ingliz tilida yozilgan boʻlsada, u Kubalik baliqchi cholning dengizda yolgʻiz qolgani bayonida muallif uni ispancha gapirtiradi, bu bilan asardagi milliy koloritni alohida taʼkidlamogʻchi, chol feʼl atvoridagi oʻziga hos hususiyatlarni boʻrttirib koʻrsatmogʻchi boʻlib, narsa va hodisalarni ispancha transkripsiyada yozuvda beradi. Asarda bunday oʻrinlar talaygina. Masalan, muallif dengizni ispanlar ham jenskiy rodga ham, mujskoy rodga ham "la mar" va "el mar" deb atashlarini ispancha berib, dengizni sevuvchilar uni erkalab "la mar" deb atashadi, pisand qilmovchilar esa "el mar" deb atashadi deydi. Ispancha milliylikni ifodalovchi bu jumla tarjimasi rus tilida ham oʻzbekchada ham muallif uslubini saqlagan holda oʻgʻirilgan:

He always thought of the sea as la mar which is what people call her in Spanish when they love her. Sometimes those who love her say bad things of her but they are always said as though she were a woman. Some of the younger fisherman, those who used bouys as floats for their lines and had motor-boats, bought when the shark livers had brought much money, spoke of her as el mar which is masculine. (p.47-48)

Myislenno on vseгда zval more la mar, kak zovut ego po-ispanski lyudi, kotoryie ego lyubiyat. Poroyu te, kto ego lyubit, govoryat o nem durno, no vseгда kak o jens`hine, v jenskom rode. Ryibaki pomoloje, iz teh, kto pol`zuetsya buyami vmesto poplavkov dlya svoih snastey i hodit na motornyih lodkah, kuplennyih v te dni, kogda akul`ya pechenka byila v bol`shoy cene, nazyivayut more el mar, to est` v mujskom rode. (s.15)

Har doim dengizni, unga muhabbat qoʻygan hamma kishilar kabi ispanchasiga la mar deb atardi. Akula jigarining narhi oshgan kunlarda sotib olingan motorli qayiqlarda yurib, qarmoqlariga poʻkak oʻrniga buy ishlatadigan hilidan boʻlgan yoshroq baliqchilar esa dengizni el mar deb ataydilar va unga yer kishiga qaraganday qaraydilar. Ularning nazdida dengiz goʻyo, hududsiz bir sayhon, goʻyo bir raqib, gohida esa, hatto bir dushman boʻlib koʻrinadi. (17 b.)

Asarda horijiy aralashmalar asliyatda ispancha transkripsiyada berilgan va ruscha, o'zbekcha tarjimalarda muallifning bu usuli to'g'ri saqlangan va matn ostida izohlangan. Masalan, calambre (71 b.) - ruscha sudoroga, o'zbekchada tomir tortishi, akashak: Gran Ligas (75 b.) - izvestnyie beysbolnyie komanyi, mashhur beysbol komandalari, juegos (75 b.) - sportivnyie igryi, sport musobaqalari, un espuela de hueso (75 b.) - kostnaya mazol` - suyak qadog'i: El Campeon (76 b.) - chempion: galanos (103 b.) - vid akulyi, akula turi: Tiburon (117 b.) - akula.

Asarda oficiant ma`nosida ishlatilgan Eshark (117 b.) realiyasi mavjud. Aslida bu so'z inglizcha shark so'zining oldiga ispanlarga hos "E" harfini qo'shib aytilishidan hosil bo'lgan. Ispanlar o'zlari uchun qiyin talaffuzli shivirlovchi tovushli so'zlar oldiga E harfini qo'shib talaffuz qiladilar. Milliy, lokal harakterga ega bo'lgan bu realiya ruscha va o'zbekcha tarjimalarda oddiygina "oficiant" deb o'girilib bunday o'ziga hoslikni qoldirib ketishgan.

II Bob.

TURLI XALQLARGA MANSUB XOS SO'ZLAR VA ULARNI TARJIMASI MASALASI.

2.1. Turli xalqlarning urf-odatlari va o'ziga hosliklarini tarjimada aks etishi.

Asar yozilgan tilni chuqur va mukammal bilmay, muhit va davrni o'rganmay, muallif tasvirlagan xalqning urf-odatlari bilan yaqindan tanishmay turib badiiy barkamol tarjima asari yaratish amri mahol. Keyingi yillarda O'zbekistonning dunyoga yuz tutishi - chet ellarda O'zbekistonning madaniyat va adabiyot kunlari, haftaliklari bo'lib o'tishlari o'zbek xalqining milliy qiyofasini horijliklarga tanishtirishda katta rol o'ynaydi. Ayniqsa, o'zbek yozuvchilarining asarlari horijiy tillarga, jumladan nemis tiliga ko'plab o'girilayotgani ikki buyuk xalqning o'zaro yaqinlashayotganidan nishonadir.

Badiiy asarning tarjima qilinayotgani tarjima tanqidini ham rivojlantirishni taqozo qiladi. Tarjima tanqidida ahamiyatsiz, mayda mavzular yo'q. Biroq, shu muammolar ichida xalqlarning milliy va diniy qiyofasi -realiyalar tarjimasini alohida o'rin tutadi. O'zbek tilidan rus tili orqali nemis tiliga o'girilgan buyuk adib Abdulla Qahhorning "Sinchalak" qissasi va qirg'iz xalqining atoqli adibi Chingiz Aytmatovning bevosita nemis tiliga qilingan "Jamila" hikoyasida keltirilgan milliy va diniy realiyalarning tarjimada qanday aks etganini tahlil qilamiz.

Islom dini - bu ota-bobolarimiz dini, u biz uchun ham i'mon, ham ahloq, ham diyonat, ham ma'rifatdir. Qadimdan marifatli ajdodlarimiz islom diniga sajda qilib kelganlar. Ayniqsa buyuk mutafakkir Umar Hayyomning ruboiylari, Yusuf Hos Hojibning "Qutadg'u biblg" asari, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab dostonlari va g'azallari diniy falsafa bilan yo'g'rilgan. Xuddi shuningdek boshqa xalqlar - jumladan Ovroqpa xalqlari adabiyotida ham diniy qadriyatlar o'z aksini topgan. Insonlar o'zlari sig'inadigan Ilohga turlicha nom berganlar, Ilohlariga atab turli xonaqohlar qurganlar va ularni turlicha nom bilan ataganlar, Ilohlariga ibodat tarzi ham har bir xalqda o'zgacha.

Dunyoda eng ko'p tarqalgan din - bu Xristyan dini bo'lib, unga bir milliarddan ortiq kishi itoat qiladi. Ikkinchi o'rinda Islom dini turadi. Bu dinga salkam bir milliard muslim ibodat qiladi.

Islom dini bilan Xristyan dini o'rtasida ko'plab o'xhashliklar bor: yakkaxudolik, payg'ambarlarga bo'lgan yuksak hurmat, Xudoning buyuk va yaratuvchilik hamda mehribonlik hislatlarini ifodalovchi so'zlar, ibodat qilish kabi xosliklar bu ikki diniy oqimda ham mavjud.

Badiiy asar tarjimasida umuman, diniy so'zlar - atamalarga alohida e'tibor berish zarur.

Diniy xosliklar quyidagilardan iboratdir:

1. Diniy tashkilotlar: ibodatxona, masjidlar, (turkcha: jome'), cherkov,(cerkv`), die Kirche, church, die Sinagoge (cinagog);
2. diniy ibodatlar: nomoz, tahorat, fotixa, cho'qintirish, das Gebet va b.:
3. diniy bayramlar: hayit, maraka, rojdestvo, die Weihnachten;
4. diniy marosimlar: koh, xutba, janoza, yirtish, qirqochdi, pohorono', pominka, otpevanie va boshqalar.

Diniy rasm-rusumlar va marosimlar ham asarga o'ziga xos milliy ruhiyat bag'ishlaydi. Asrlar davomida Islomga bo'ysunuvchi Markaziy Osiyo xalqlari-o'zbeklar, qirg'izlar, qozoqlar, turkmanlar, qoraqalpoqlar va b. deyarli har harakatlarida dinning qaysidir bir qoidasiaga rioya qilganlar. Bu hodisani tarjimada to'g'ri aks ettirish asl nusxada berilgan milliy ruhiyatni to'laqonli tasvirlashga xizmat qiladi.

Lekin ko'plab tarjimasarlarni o'qirkansiz, o'zga diniy tushunchalar, tarjima tilidagi boshqa tushuncha va atamalar bilan o'zgartirilganini ko'rasiz. Natijada xristianlar ko'z o'ngida Islomning buzilgan shakli namoyon bo'ladi. Ayrim tarjimonlar esa qiynalib o'tirishni istamaydilar va diniy xosliklarni chetlab o'tadilar. Xuddi shu jarayonni "Sinchalak" qissasi tarjimasida ham ko'ramiz.

Asliyatda:

... Shu bilan bular (Zulfiqorov va Mehri) orasidagi munosabat yarim rasmiy tusga kirdi. Zulfiqorov bir tovoq osh qilib, domla-imom topib keldi-yu xutba o'qitib oldi. Ruschada:

... Slovom, v konce koncov otnoshenie Zulfikarova i Mehri prevratilis` vo chto-to vrode poluoficialnogo vtorogo braka. I pochuvstvovav sebya v bezobastnosti, Zulfikarov reshil dovesti delo do konca: prigotovil plov dlya blijayshih druzey i privez zahudalogo mullu, kotoroy nedolgo dumaya, sovershil vsyo chto ot nego hoteli.

Asl nusxadagi "xutba o'qitib oldi" so'zlari ruscha tarjimada tushib qolgan. K. Simonov xutba o'qitib olish uylanayotgan har bir musulmon uchun farz ekanligini tushunmagani uchun bu diniy xoslikka e'tibor qilmagan. Natijada Zulfiqorov va Mehri tarjimada nikohsiz oila qurgan bo'lib, avvaliga rus, keyinchalik, nemis o'quvchilariga tushuntirilgan.

Qissa shu yerga kelganda yana qiziq bir faktga e'tiboringizni tortamiz:

Nemischa tarjimadagi ..."und brachte auf einen Anderthalbtonner einen heruntergekommenen Mulla angefahren, der ohne lange zu qberlegen, tat was man von ihm verlangte", matnidan keyin (tarjimasi: yo'lida uchrab qolgan bir mullani topib keldi va u uzoq o'ylab o'tirmay aytilgan topshiriqni bajardi) o'zga madaniyat sohibi to'y arafasida osh ustiga chaqirilgan mullaning qanday vazifani bajarishini qaydan bilsin.

Demak rus tarjimoni yo'l qo'ygan kichik bir xato-tushurib qoldirilgan va noaniq o'girilgan so'z nemischada o'z aksini topgan. Vaholanki, xrisyianlar ham to'y oldidan cherkovda nikoh o'qitadilar-ku. Shuning uchun ham nikoh va xutba o'qitish so'zlarini nemischada "das Ehegebet" deb o'girish mumkin edi. Shunda o'zbeklarga xos bo'lgan bu diniy xoslikni nemis o'quvchisi ham anglab etardi.

Diniy xosliklardan yana biri nomozdir. Musulmon Sharqi aholisi nomozning qanday ibodat ekanini yaxshi biladi. Nomoz shunchaki ibodat turi emas, balki Islomning 5 ta arkonlaridan biridir. Kishining nomoz o'qish ibodatini qanday bajarishiga qarab turib, uning musulmonlik darajasini bilib olish mumkin. Nomoz

so'zini nemischa tarjimada berilishini atoqli qirg'iz yozuvchisi Chingiz Aytmatovning "Jamola" qissasi ikki tarjimasi misolida ko'rib o'tamiz:

Asliyatta:

... Qarigan atam jigach uzanat-kolxozdun jurub turgan ushul taktay arabasi, hadi arabasi-barisi derlik oshol kishinin holinan chigip turat, tandan namazni okip ustahanasina ketet-da, kun bata kelet.

O'zbekcha tarjimada:

...Keksa otam ustachilik qilardi-kolxozdagi yurib turgan deyarli barcha taxta aravasi-yu, shoti aravasi uning qo'lidan chiqqan, tongda nomozini o'qib, ustaxonasiga ketar, kun botgach qaytardi.

Hartmut Herbot "nomoz" diniy xosligini (realiyani) tarnskripsiya yo'li bilan o'zlashtirgan va matn ostida "Namas: funfmal taglich zu verrichtendes gebet aus den Koran", (kuniga besh mahal Qurondan o'qiladigan diniy ibodat) deb izoh bergan. Ikkinchi nemis tarjimoni Gisela Drola esa nomozni "das vorgeschrieben Morgengebet"(ertalabki majburiy ibodat)deb tarjima qilgan.

Ammo nomoz shunchaki ertalabki ibodat emas. Nomoz har bir musulmonning kamida besh mahal ado etadigan ibodat shaklidir. "Jamila" qissasini Gisela Drola tarjimasida o'qigan olmonlar nomozni musulmon kishi demak, kuniga bir mahal-ertalab o'qib qo'ysa bo'ldi, ekan deb tushinishi mumkin.

Bizningcha, har ikki nemischa tarjimadan Hartmut Herbotning variantini ma'qulroq deb topdik.

Diniy xosliklar haqida gapirganda shuni ham nazardan qochirmaslik kerakki, musulmonlarning masjidini xristianlarning chekovi bilan almashtirib bo'lmaydi. Rus tilidan ozbek tiliga o'girilganda "cerkv`" so'zi "cherkov" deb aytiladi. Ammo "die Kirche" so'zini o'zbekchaga qanday o'girish mumkin yoki Iloh-Xudoning nomlarini boshqa tilga qanday ko'chirish lozim.

F.Schillerning "Kabale und Liebe" ("Makr va muhabbat") tragediyasida ham davriylik va milliylik taqozosiga ko'ra ko'plab diniy xosliklar qo'llangan.

Filologiya fanlari nomzodi, dots. O'. Nurmatov o'zining "Shiller O'zbekistonda" nomli kitobida "Tangri-Iloh-Olloh" nomlarining nemischadan ruscha va o'zbekcha tarjimalarini tahlil qilgan. Quyida shu tahlildan namuna

O'zbek mutarjumlari bu o'rinda ma'noni kengaytirish yo'lidan borib, nemis tilidagi konkret bir so'z- die Kirche- so'zini umumiy tushuncha - ibodatxona so'zi bilan ifodalaganlar. Ibodatxona barcha dinlar uchun umumiy ibodat qilish maskani hisoblanadi. Mutarjumlarning topqirligiga tan berish lozim.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, badiiy asar tarjimasidagi konkret diniy realiya tarjimasiga aniq bir talab qo'yish qiyin. Mutarjim diniy xos so'zlarni o'girishda kontekstdan kelib chiqib, juda ehtiyotkorlik bilan yondashuvi lozim.

Bu borada tarjimashunos olimlar prof. A. Fyodorov, Florin, Vlaxov va o'zbek tarjimashunos olimi G'. Salomovning xos so'zlar tarjimasiga oid tahlillarini jiddiy o'rganib chiqib, talabalarga quyidagi tavsiyalarni beramiz:

1. Transliteratsiya (to'la va qisman) bevosita so'zni fonetik moslashtirish yoki so'z negiziga o'z tilining unsurlarini qo'shish;
2. Predmetni ifodalash uchun tilda real mavjud bo'lgan unsurlardan foydalangan holda yoki morfologik biriktirish yo'li bilan yangi so'z yoki so'z birikmasi hosil qilish;
3. Boshqa tildagi realiyalarni ifoda etish uchun so'zlarni vazifasi va funksiyasi jihatidan o'sha realiyaga yaqin turgan (garchi aynan bo'lmasa-da)so'zlar yordamida tarjima qilish.

Ushbu ishimizda berilgan misollardan ko'rinyaptiki, mutarjimlar realiyalarni tarjima qilishda ko'proq birinchi usul va ayrim hollardagina uchinchi usulni qo'llaganlar. Tarjima tilida xos so'zga munosib so'z va tushuncha bo'lmagan hollarda birinchi usulni qo'llangani yaxshi natija bergan.

Birinchi usul-tarnsliteratsiya usuli qo'llanganda ayrim nemis mutarjumlari matn ostida izohlar berganlar, ayrimlari esa realiyalarni o'z tillarida mavjud bo'lgan so'z bilan qisman almashtirganlar va buning oqibatida ayrim nomuvofiqliklar yuzaga kelgan.

Tarjima jarayonida ayrim o'zbek so'zlari nemis tiliga o'tgan va buning aksi sifatida bohqa asarlar orqali nemis tilidan o'zbek tiliga ko'plab so'zlar kirib kelgan. Bu esa xalqlarning til boyligi oshuviga olib kelgan.

2.2. Jahon xalqlariga xos bo'lgan milliy xususiyatlar va tarjimaiy muammolari

Nima uchun XXI asrda o'zbek milliyligi, o'zbek davlatchiligi masalalarini o'rganishga zaruriyat tug'ildi va ayniqsa milliy qadryatlarimizning horijiy tillarga o'girilishi muammolarini bu qadar keng tahlil qilish nega zaruriyatga aylandi.

Milliyligimizni o'rganish, millatimiz boy tarixini o'rganish yoshlarning o'z xalqiga, iz yurtiga bilgan hurmati va mehrini oshiradi. Yoshlar Vatan uchun, millat uchun qayg'uradigan, xalqimizning dunyodagi rivojlangan xalqlar orasida munosib o'ringa ega bo'lishiga tezlashtiradigan kuch bo'lib yetihadilar.

Milliyligimizni o'rganish, davlatchiligimizni tahlil qilish yoshlarning kelajakka bo'lgan umidini oshiradi, milliy mafkuramizni kuchaytiradi.

Milliy va diniy qadryatlarni o'rganish va o'zga millatlar qadryatlarini hurmat qilishning siyosiy ijtimoiy muhimligini ta'kidlash uchun quyidagi voqealarga e'tiborni qaratamiz.

2005 yilning sentyabr oyida Daniya davlatining gazetalarida Islom dinining buyuk kishisi - payg'ambarimiz Muhammad Mustafu (sallallohi alayhi vasallam)ning karikatura sur'atlari bosilib chiqdi. Sur'atlar Daniyaning o'zida hali u gazetalarda, hali bu jurnallarda bosildi. Karikaturaning gazetalarda bosib chiqarmaslik haqida Evropadagi musulmonlar rahnamolari bayonotlar bilan chiqqan bo'lsalarda "Evropa-demokratik an'analar o'lkasi", degan shovinistik bahonalar bilan sur'atlarning ko'paytirilishiga chek qo'yilmadi. Aksincha Evropadagi boshqa davlatlar ham, jumladan Fransiya, Germaniya, Angliya, Italiya kabi davlatlarda bu karikaturalar qayta - qayta nashr qilindi, yangilari tayyorlandi.

Buning oqibati o'laroq, yaqindagina Franciya, Ispaniya va Britaniyada bo'lib o'tgan milliy va etnik asosdagi g'alayonlar nafaqat Evropa mamlakatlarining katta qismida balki, musulmon Sharqiga ham yoyildi.

Butun dunyo musulmonlari Muhammad rasulullohning bu alfozda mashara qilinishiga qarshi bor ovozi bilan e'tiroz bildirdi. Bu harakatlar Shimoliy va Janubiy Amerika mamlakatlariga ham yoyildi.

Gap shu erga kelganda bir oz moziyga qaytib, bunday voqe`alar avvallari ham sodir qilinganini eslatamiz. XX asrning 80 yillarida Angliyada yashagan hind yozuvchisi Salmon Rushtiy Muhammad alayhissalom hayotini qing`ir tasvirlangan roman yozib, uning nomini "Shayton suralari" deb atagan edi.

Kitobda payg`ambarimizning hayoti, falsafiy qarashlari, kurash yili masxaromuz tasvirlangan. Bu kitob tabiiyki, butun dunyo musulmonlarining g`ashiga tegdi, turli diniy tashkilotlar bu asarlarga o`zlarining keskin qarshiliklarini bildirdilar.

Eronning o`ha paytdagi diniy va milliy rahnamosi Oyatulloh Humayniy Salmon Rushtiyini o`lim jazosiga hukm qildi va o`ldirgan kishiga bir million dollar va`da qildi.

Oyatulloh Humayniyning bu jazosi tufayli butun dunyoda yozuvchining asariga bo`lgan e`tibor juda kuchaydi. Roman Evropa va Sharq tillariga qayta-qayta tarjima qilindi va sharhlandi. Buning oqibatida Salmon Rushtiyga katta miqdorda ganorar-qalam haqi to`landi. Yozuvchi eng boy kishilardan biriga aylandi.

Ammo, uning va oilasining tinchi yo`qolgan edi.

Garchi shakkok yozuvchi barcha musulmonlardan va albatta, birinchi navbatda Oyatulloh Humayniydan qayta-qayta uzr so`ragan bo`lsa-da u kechirilmadi. Rushtiy uzoq yillar davomida turli chekka o`lkalarda qochib yurishga mahkum bo`ldi. O`n yil davomida yozuvchi haqida uning sog`lig`i haqida matbuotda ko`plab bir-biriga zid ma`lumotlar bosilib turdi. Ayrim ma`lumotlarga qaraganda yozuvchi aqldan ozgan edi ... Uning adiblik shuhrati, mol-mulki unga foyda bermadi.

Achinarli tomoni shundaki, bu masala Sharq va G`arb xalqlari va davlat rahbarlarining qarama-qarshiliklariga sabab bo`ldi. Sharq davlatlarining davlat va diniy rahbarlari Yevropani musulmonlarning milliy va diniy kamsitilishiga yo`l qo`ygan, deb ayblasalar, Xristian olami esa Sharqni demokratik g`oyalardan yiroqlikda ayblaganlar.

Prezidentimiz I. A. Karimov ko`p bor ta`kidlaydiki, hech bir jamiyat ma`naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma`naviy va ahloqiy qadryatini rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o`z istiqbolini tasavvur eta olmaydi. Xalqning madaniy qadryati, ma`naviy merosi ming yillar mobaynida Sharq xalqi uchun qudratli ma`naviyat manbai bo`lib hizmat qilgan. Uzoq vaqt davom etgan qattiq mafkuraviy tazyiqqa qaramay O`zbekiston xalqi avloddan-avlodga etib kelgan o`z tarixiy va madaniy qadryatlarini, o`ziga hos betakror an`analarini saqlab qolishga muvaffaq bo`ldi.

Mustaqilligimizning dastlabki kunidayoq ajdodlarimiz tomonidan ko`p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma`naviy va madaniy merosini o`rganish, ularni tiklash davlat siyosati darajasiga ko`tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo`lib qoldi. Biz ma`naviy qadryatni tiklashni milliy o`zlikni anglashni, milliy o`zlikni anglashning o`sisidan xalqning ma`naviy sarchashmalariga o`z ildiziga qaytishdan iborat uzviy tabiiy jarayon deb hisoblaymiz.

Xalqimiz o`z tarixining ijodkori, o`ziga hos milliy madaniyati sohibiga aylandi. Tarix hotirasi, xalqning, jonajon o`lkaning, davlatimiz hududining holis va haqqoniy tarixini tiklash milliy o`zlikni anglashni, ta`bir joiz bo`lsa milliy iftihorni tiklash va o`stirish jarayonida g`oyat muhim o`rin tutadi. Tarix millatning haqiqiy tarbiyasiga aylanib bormoqda. Buyuk ajdodlarimizning ishi va jasorati tarixiy hotiramizni jonlantirib, yangi fuqorolik ongini shakllantirmoqda.

Markaziy Osiyo tarixiy, siyosiy aql idrok bilan ma`naviy jasoratini, diniy dunyoqarashi bilan qomusiy bilimdonlikni o`zida mujassam etgan buyuk arboblar ko`p bo`lgan.

Imom Buhoriy, Imom at Termiziy, Hoja Bahouddin Naqshband, Hoja Ashmad Yassaviy Al-Horazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muahmmad Bobur va boshqa ko`plab buyuk ajdodlarimiz millat madaniyatimizni rivojlantirishga ulkan hissa qo`shdilar, xalqimizning milliy iftihori bo`lib qoldilar. Ularning nomlari jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo`shgan buyuk hissasi hozirgi kunda butun dunyoga ma`lum.

Tarixiy tajriba, an`ana, meros bo`lib o`tish bularning barchasi yangidan-yangi avlodlarni tarbiyalaydigan qadryatiga aylanib qolmog`i lozim. Respublikamiz prezidenti I.A.Karimov "Tafakkur" jurnali bosh muharriri savollariga javoblarida diqqatimizni yana bir muammoga qaratdi. "Qaerdaki mafkuraviy bo`shliq vujudga kelsa, o`sha erda begona mafkura hukmronlik qilishi ham tayin". Demak, yangi, rivojlanayotgan navqiron davlatimiz va jamiyatimiz o`z mafkurasini hosil etish kerak. Bu avvalo, o`z yo`limizni qaror toptirishimiz uchun zarur. Qolaversa, biz ikkilanishlar bilan yurar ekanmiz, xalqimiz ayniqsa yosh avlod ongini mustaqillik yo`liga begona, hatto unga zararli bo`lgan chuchmal, notayin qarashlar egallab olishi mumkin.

Buni esa biz o`z boshimizdan o`tkazyapmiz. Mustaqilik hayotni barpo etishning qiyinchiliklaridan dovdirab, esankirab qolayotgan kimsalar ongida, yashirib nima qilamiz, beihtiyor eski boqimandalik davri tuzuk edi, har qalay, ishlanglar ishlamasang, bizni davlat boqib turuvdi, degan mayda maishiy aqidani qura boshlayapti. Yoki, mustaqillik bergan erkinliklardan foydalanib, milliy urf-odatlar, diniy e`tiqodlarga keng yo`l ochilganligini o`zicha tushunib, ongi past, jaholatdan oyog`ini uzolmagan, din niqobidagi ayrim kimsalar o`zining badbin, taraqqo`yotiga zid, oqibati ijtimoiy turg'unlik va qoloqlikka olib keladigan "islom respublikasi"ni o`rganish haqidagi hayollarini pana-pastqamda ommalashtirishga kirishganlarini ham ko`rdik.

Taraqqiyotning, darhaqiqat, o`z ichki ziddiyatlari, qarama-qarshiliklari bor. Shu o`rinda bir masalaga to`xtalaylik. Sobiq sho`ro davrida jamiyat taraqqo`yoti tushunchasiga sinfiy-siyosiy tus berib kelindi. Jamiyatdan sinfiy dushman qidirildi. Boshqacha aytganda, mustaqil fikrli kishilar, ilg'or ziyolilar shunday dogmatik qarashlar asosida hayotdan yo`q qilinishigacha yetib bordi. Taraqqo`yotning yo`lini o`zga fikrlarni yo`q qilish evaziga "ta`minlashga" harakat qilindi.

So`ngi damlarda, sho`ro davlatining ohirgi kunlarida "davlat manfaati bilan hususiy manfaat orasidagi ziddiyatlarni izlash" yo`nalishida shunday ishlar olib borildi. Xalq orasida davlat mulkini talon-taroj qilish, manfaatidan ustun qo`yishi, qallobliklar avj olganligi to`g`risidagi fikrlar sho`ro davlatining yuqori rahbar

doirasida qat'iy qilindi. Bu ham, aslida, sinfiy kurashning yangicha tovlanishlari edi. Sovet davlati o'z umrining so'nggi o'n yilligida ommaviy qatag'onning shunday usulini o'ylab topdi.

O'zbekistonda olib borilgan "paxta ishi" tadbiri buning ko'ngilsiz bir dalilidir.

Taraqqiyot jarayonining, unda uchraydigan ziddiyatlarni sinfiy-siyosiy mazmunda talqin etish g'ayri insoniy usul tarzida sho'ro hukumatining o'zi bilan birga tarix sahnasidan supurib tashlandi Biroq, shuni aytish kerakki, yuqorida aytilganlardan rivojlanish ziddiyatlarisiz ham yuz berishi mumkin, degan xulosa kelib chiqmaydi. Hamma gap hayot ziddiyatlarini talqin etishning mezonlaridadir.

Yangi dunyoqarashga erishish yangi mafkura hosil qilish imtihonlarda hatto ziyoli doiralarning vakillari ham orosatda qolayotganlari ko'zga tashlanyapti. Masalan, tarixiy-madaniy merosga munosabatni olaylik, sohibqiron Amir Temurning shahsiyoti va tarixiy faoliyatini yangicha idrok etish bizga oson bo'ldimi. Chunki uni o'n yillar davomida insoniyatni dushmaniga, yovuz hukumdorga, behavqat bosqinchiga chiqarib kelishdi. Bu aqida butun butun avlodlar ongini zaharlab keldi. Shuni oqibatida Amir Temurni milliy iftiorimiz, markazlashgan buyuk davlat ijodkori fan, madaniyat taraqqiyoti homiysi tarzida qaytadan, yangittan tushunish qiyinchiliklar, ikkalanishlar jarayonida yuz berdi.

Yoki jadidlar muaommosini olaylik. Aslida bu harakat namoyondalari xalqimizning eng zahmatkash fidoyilari edilar. Ular xalqni ma'rifatli qilish, xalq orasida ziyolilikni kuchaytirish zarur bo'lsa yosh avlod vakillarini rivojlangan horijiy mamlakatlarda o'qitishni yangi taraqqiyotga erishishning eng to'g'ri yo'llari deb bildilar va shu yo'lda kurashdilar. Lekin sho'ro davlati ularni millatchilarga chiqardi va qatl qildi, surgun qildi.

Jadidlarni "Millatchilar" deb talqin qilish ilmiy adabiy kitoblarda yaqin yaqingacha hukm surib keldi. Bu eski qarashni yengib o'tishga mustaqillik yo'l ochdi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki horijiy madaniyatning oynasi bo'lishga badiiy adabiyotdagi milliy qadryatlarni o'rganishga yosh yigit va

qizlarda o'zaro hurmat ehtiromni shakllantirishdan tashqari ularda yangilikka intilish, tinchlikni avaylash, vatanga muhabbatni kuchaytiradi.

O'zbeklarda ikkita qadrdon uchrashganda qo'ltiqlashib ko'rihadilar va galma-galiga elkalarini-elkalariga tekizadilar. Agar uchrashganlar judayam qadrdon bilsalar, "og'iz-burun" o'pivadilar. Boshqa vaqtlarda esa tanishlar takalluf bilan duchlashadilar: o'ng qo'l ko'krakka qo'yilib, ta'zim bilan o'tib ketiladi yoyinki ikki tomon ham baravariga ikki qo'lini cho'zib, to'rtala qo'l bir oz silkishiladi, baravariga hol-ashvol so'raladi.

Hol-ahvol so'rashning mundarijasi keng va batafsildir: har ikkala tomon, navbati bilan: ota-ona, bola-chaqa, qavm-qarindoshlar, uy-ro'zg'or, mol-hol, kayfiyat va qariyb qozon-tovoq, boshqa tanish-bilishlar, qo'ni-qo'shnilarning hol-ahvoligacha birma-bir so'rab chiqiladi. Basharti, vaqt ziqligidanmi yoki boshqa biron sababga ko'rami, mufassal ko'rishib-so'rashilmasa, tomonlar bir-birlaridan ranjiydilar.

Ko'pgina Sharq xalqlarida ayollarning paranjisidan tashqariga chiqishlarini qat'iy man etadigan odat bor. Shimoliy Sudan va janubiy Saharda esa tuareg atalmish kichik bir xalq yashaydiki, ularda erkaklar yuzlarini yashirib yuradilar.

V.Ovchinnikovning maqolasida rus madaniyatida kundalik ahloq normalari bilan yaponlarning an'anaviy odob-ahloqi chog'ishtirilgan.

Tanishini ko'rishi bilanoq, yapon darhol joyida taqqa to'xtaydi mabodo ko'chaning qoq o'rtasida bo'lib, ro'parasidan tramvay kelayotgan bo'lsa hamki, u turgan joyida qotishi lozim. So'ngra darhol beli ikki bukulib, ochiq kafti oyog'i uzra tizzasiga sirg'alib tushadi, bir necha sekund ana shunday bukilgan holatda ta'zim qila turib, faqat ko'zlarini yuqoriga tikadi. Birinchi bo'lib qadni rostlash odobdan hisoblanmaydi,binobarin, ta'zim holatida ro'para-ro'para turganlar bir-birlarini juda ziyraklik bilan kuzatadilar. Tashqaridan kuzatgan kishiga bu manzara juda qiziq: ular to'satdan bel og'rig'i tutib qolib, qaddini rostlayolmayotgan belangiga o'hshab ko'rinadi. Ruslarda bir-biri bilan diydor ko'rishish manzarasi bo'lakcha. Bir holatda, agar uchrashganlar erkak kishi va do'st bo'lsalaru, biron rasmiy joyda duch kelsalar, bir-birlarining yelkasiga qoqib-qoqib qo'yishadi,

boshqa holatda, agar uchrashganlar ayol kishilar bo'lsa, bir-birlarining yuzlaridan o'padilar, uchinchi holatda - uchrashganlar qo'l olishib, baravariga boshlarini egadilar. Nihoyat, uchrashganlar jamiyatda boshqa - boshqa mavqega ega yoki ularning tutgan ijtimoiy roli o'zgacha (biri - rahbar, ikkinchisi- unga itoatkor) bo'lsa, bosh kiyimini yechib (yoki yechmay) qo'l olishmagan holda bosh egiladi, holos.

O'zbeklarning bir-birlariga takallufi va mulozamati ham, aytaylik, yaponlarnikidan qolishmaydi. Umuman, kishilarning o'zaro munosabatiga qarab qaysi millatga mansubligini bilsa bo'ladi. Chunki ularning o'tirish-yurish-turishi, o'zini tutishi, ko'z qarashi muomalasi va hokozolarning barchasi xalqning milliy-psihik holati bilan bog'liqdir. Yozuvchilar bundan juda ustalik bilan foydalanadilar.

Abdulla Qahhorning "Qo'shchinor chiroqlari" romanidan olingan quyida parchalar bu jihatdan juda harakterli:

1. "Sidiqjon undan (choldan-G'.S.) bunday gap chiqishini kutmagan bo'lsa kerak, qattiq izza tortdi nima deyishini bilmay, boshidan do'ppisini olib, u yoq-bu yog'iga chertdi, tizzasiga qo'yib jiyagini tortdi" (uchinchi bobning ikkinchi qismidan).

2. "Shu choq eshik ochilib kimningdir g'ayritabiiy "ha-aha-ishi!" deb yo'talgan tovushi eshitildi-yu To'lagan aka kirib keldi. Bo'taboy aka bu yo'talning ma'nosiga darrov tushundi, rangi oqarib, yo'talni eshitmagan va To'laganni ko'rmagan bo'lib derazadan tashqariga qaradi. Bu yo'tal Safarovga ham tegib ketdi. U g'ashi kelib bir nima demoqchi bo'ldi-yu, nimanidir mulohaza qilib aytmadi va hatdan boshini ko'tarmay:

- G'alati yo'tal chiqaribsizmi, To'lagan aka - dedi.

- Tab'im-da. Poshsho odam ekanman!-dedi

To'lagan aka va o'zini gurs etib divanga tashladi, uzun kekirdi: nos otdi, labida qolgan yuqini puflab kaftini tizzasiga artdi. - Endi, o'rtoq Hapayup, shigiymij bilan otimijni beshalaring ham bo'lar..." (oltinchi bobning ikkinchi qismidan).

3. "Orqada turgan Boltaboy uni imo bilan chaqirdi. Sidiqjon, yuragi "shuv" etib, qo'lini qovushturganicha oyoq uchida yugurib bordi".

- Qaerliksiz-dedi Samandarov hiyol jilmayib,-qo'lingizni tushuring!

- Bashrobodlik...

- Qo`lingizni tushuring! Nega qo`l qovushtirasiz

Siddiqjon qo`lini tushurdi, lekin qaerga qo`yishni bilmay yana qorniga qo`ydi.

- O`rganib qolganmiz Kimga qo`l qovushtirib o`rgangansiz..." (To`qqizinchi bobning ikkinchi qismidan).

Do`ppini qo`lga olib, u yoq-bu yog`iga chertish, tizzasiga qo`yib jiyagini tortish, yo`talish, qo`l qovushtirish va hokozolar mayda, ammo shunchalik nozik va serma`noki, bular faqat o'zbekning milliy qiyofasiga hos. Yozuvchi bir yoki bir nechtagina abzapda ana shunday mayda tafsilot va detallar orqali tasvirlagan voqea, anglatgan ma`noni boshqa biron adib, ehtimol, minglab sahifalarda ham berolmas.

Oyoqlarni chalkashtirib o`tirish yaponlar uchun betakalluflik hisoblanadi, oyog`ini suhbatdoshi tomonga uzatish esa o`taketgan haqorat deb qabul qilinadi. Darvoqe, o`zbeklarda ham huddi shunday. Amerikaliklar esa bemalol oyoqlarini stol ustiga uzatib, boshqa millatga mansub suhbatdoshining avzoyi ayniyotganini butunlay payqamagan holda, bamaylihotir gaplashaveradilar.

Shunisi qiziqki, yaponlarning odobi suhbatdoshiga to`g`ridan-to`g`ri rad javobini berishga yo`l qo`ymaydi. Suhbat davomida ular "yo`q", "iloji yo`q", "bilmayman", degan so`zlarni sira qo`llamaydilar, go`yo bular kishining hotirasini ranjida etuvchi kalima hisoblanadi. Ular bo`lak vositalar, qochirma va ishoralar bilan rad ma`nosini ifoda etadilar. Hatto ikkinchi piyola choy uzatilganda uni qaytarish uchun ham "qulluq" boshqa ichmayman" deyish orniga, "juda serob boldim" qabilidagi iborani qo`llashadi. Agarda tokiolik biron tanishingiz: "Sizning taklifingizga javob qaytarishdan oldin hotinim bilan bir maslahatlashib olay" desa, qarshingizdagi kishini rafiqasiga juda mehri baland yoki hotinlar bilan erkaklarning teng huquqliligi tarafdori ekan degan hayolga borib o`tirmang. Bu "yo`q" so`zidan bosh tortishning ko`pgina yo`llaridan biri.

Aytaylikki, siz yaponga sim qoqib, u bilan soat oltida press-klubda uchrashmoqchi ekaningizni bildirganingizda, u; "Ha, soat oltida deng-a Ha, press-klubda deng-a" deb javob qaytarsa-yu, yana allaqanday tushunarsiz tovushlar

chiqara boshlasa, siz darhol gapni payqab, "Mayli, agar sizga uncha qulay bo'lmasa, boshqa vaqtda va boshqa joyda gaplasha qolaylik" deb javob qilishingiz lozim.

Shu zahotiy oq suhbatdoshingiz "yo`q" so`zini aytishdan qutulganiga shukurlar qilib, o`ziga qulay bo`lgan joy va fursatdan darrov birini qabul qiladida, bajoni-dil, "ho`p" deydi.

Fikrlarning oshkor to`qnashuviga olib keladigan holatlardan, o`zganing izzat-nafsini og`ritishga sabab bo`ladigan ochiq tasdiqlardan saqlanish uchun yaponlarda mazojiy gaplarni ishlatishga avloddan-avlodga odatlantirib kelingan.

Bu bir-biridan hiyla kop farq qiladigan halqlarning madaniyatlarini chog`ishtirganda yuz beradigan holat va hodisalar. Yevropa xalqlarining urf-odat va odob qoidalarini qiyoslaganda ham ancha-muncha farqlar borligini payqash mumkin. Chunonchi, bir qancha Ovropa mamlakatlarida kafe yoki restoranda ma`muriyatning telefonidan foydalanilsa, buning uchun oficiantga haq to`lamlari darkor.

Bizda esa faqat avtomat-telefondan foydalanganda haq to`lanadi, holos. Bir hil Evropa mamlakatlarida tuhumni kilolab o`lchab sotishadi, bizda - donalab sotiladi. Shuning uchun Finlyandiyadan kelgan student sotuvchiga yuzlanib: "Menga, marhamat qilib, yarim kilo tuhum bering" desa, bunga ajablanmaslik kerak. Ruslar ovqatlanganda qoshiq, pichoq, vilka ishlatadilar, Sharqiy Osiyo xalqlari esa cho`plardan foydalanadi, eskimoslar faqat pichoq qo`llaydi, O`rta Osiyoda bir qancha ovqatlarni (masalan, palov) qo`lda yeyishadi.

Ruslar kutib olish vaqtida erkaklarga ham, ayollarga ham gul tutaveradilar, Avstriyada faqat ayollarga gul taqdim etiladi, Hindistonda bo`lsa mehmonning bo`yniga gulchambar ilinadi.

"Hitoyda men birinchi marta rasm-rusmlar, urf-odatlar, asloq-odob qoidalari hususida bosh qotirdim, deb yozadi Il'ya Erenburg. - Nega Osiyoning odatlari yevropaliklarni taajjublantiradiq. Yevropalik kishi ko`rishayotib, qo`lini uzatadi, xitoy, yapon yoki hind begona kishi uzatgan qo`lning uchini siqishga majbur bo`ladi. Venalik kishi o`zi nima deyayotganini o`ylamay-netmay, "qo`lingizni

o`paman" deydi, varshavalik esa uni biron ayol bilan tanishtirayotganlarida, beixtiyor, o'sha ayolning qo`lini o`padi. O`z raqibining qilmishlaridan darg'azab bo`lgan ingliz unga: "Muhtaram janob, siz lo'ttibozsiz" deb yozadi, "muhtaram janob"lamasdan u xatini boshlashi mumkin emas. Hristianlar cherkov, kostyol yoki kirkaga kira turib, bosh kiyimlarini qo`llarida ushlasalar, sinagoga qadam qo`yayotgan yaxudiy bosh kiyimini kallasiga ilib oladi. Katolik mamlakatlarida ayollar ibodathonaga boshlarini o`ramasdan kirishlari mumkin emas. Evropada aza rangi qora, Hitoyda esa oqdir.

Mening onam mehmonga borganda tarelkadagi ovqatni qoldirmay, pok-pokiza yeyish kerakligini o`rgatar edi. Xitoyda ovqatdan so`ng uzatiladigan bir kosa quruq gurunchga hech kim qo`l urmaydi - qorning to`qligini ko`rsatish kerak. Dunyo turfa odatlar, rasm-rusmlarga to`la, bular haqida bosh qotirib o`tirish ortiqcha, hamonki begona budhonalar mavjud ekan, demak, begona aqidalar ham bor".

Tarjimon bo`lsa o'sha odatlar rasm-rusmlarni ham, o`zga xalqlarning cherkov, monastir, kirka, sinagoga hamda machit va honaqohlari-yu, ularning begona yoinki tanish aqidalarigacha barini bilishi lozim, bu - uning shunchaki qiziqisinishi alomati emas, balki turfa xalqlar" el-yurtlarining hayotini tasvirlagan badiiy, iqtisodiy-jug`rofiy, ilmiy, tarixiy kitoblarni o`z tiliga o`girganida kerak bo`ladi.

Har bir xalqning urf-odatlar, milliy o`ziga hos harakat va qiliqlari, yumor hususiyatlari, qo`shig`u laparlari va hokazolardan habarsizlik tarjimonga pand beradi. Badiiy asarni tarjimada shirasiz va befayz qilib qo`yish uchun ko`plab qo`pol lug'aviy nuqsonlarga yo`l qo`yish shart emas, balki bir nechta nozik lavhani chiqara olmaslik, nishonga uradigan bir-ikkita xarakterli detalni tashlab ketish bilan uni o`zidan chiqarish, asarning badiiy ta`sir quvvatini susaytirib qo`yish mumkin. Abdulla Qahhorning "Sinchalak" qissasida o`qiymiz: "Eri uning (Tojihonning) mana shu xilda do`ppi tikib, Furqat aytmoqchi:

O`smadin qoshlar qaro, qo`llar xinodin lola rang,

Durraning og`ushidin peshonaning ashvoli tang...

bo`lib uyda o`tirishini orzu qilar ekan.

Mana shu ikki misrada revolyuciyaning oldingi davrdagi o`zbek qiz-juvonlarining tipik qiyofasi, didi, ahvoli juda yahshi aks etgan. Shunday tasvirli nasrda bu qadar yorqin berishning ilojisi bo`lmagani uchun ham Abdulla Qahhor Furqatga murojaat etgan.

Mana mazkur parchaning ruscha tarjimasi:

"On tol'ko i mechtal, chtobi ona vsyu jizn ostavalas' takoy, kak na etom portrete, sidela bi doma, vishivala tyubeteyki i voobshe, kak pisal kogda-to poet Furkat;

V svoem naryade, slovno v kandalah,

Sidit s toskoy v podkrashennih glazah..."

Bu g'azalda aks etgan g'azalning ajoyib milliy qiyofasi, portretiki qayta yaratishdan ko`ra, tarjimonning undan olgan, haqiqatga unchalik to`g'ri kelmaydigan taassuroti bo`lib qolgan. O`z navbatida, bunday siyqalashgan tasvir qissaning ruscha tarjimasi orqali nemis tiliga qilingan tarjimasiga ham etib qolgan:

Tarjimon o`zi o`g`irayotgan kitobda tasvirlangan xalq hayotini yahshi o`rganmasdan, bilmasdan turib uning milliy o`ziga hos tomonlarini durust idrok eta olmaydi.

"Horijiy" qadriyatlar namoyishi urf-odatlari va ishoralar tili ba`zan tushunmovchiliklarni kelib chiqishiga sabab bo`ladi. Masalan, Shveciyadan kelgan rus tili kursining stajeri yo`lovchi mashinada Moskva yonidagi Abramcev degan joydan Moskva shahriga etib borish uchun yulning bo`yida turib, muhtining bosh barmog'ini tik qilgan holda qo`lini ko`tarib turgan. G`arbiy Evropa mamlakatlarida bu ishora yo`lovchining biron joyga oborib qo`yish iltimosini anglatadi. Ruslarda esa bu "juda soz!" degan ma`noni bildiradi.

Shu sababli shofyorlar bu "g'alati" odamga qarab, kulib o`tib ketaverganlar. Hafsalasi pir bo`lgan student o`ylaganiday, bu shofyorlarning e`tiborsizligi va iltifotsizligidan emas, balki ular shvedning ishorasini tushunmaganidan shunday anglashilmovchilik sodir bo`lgan. Turkiya bilan Bolgariya o`rtasidagi urush (1877-1878) kunlarida bolgarlar yerida bo`lgan rus soldatlari antiqa bir voqeaga e`tibor

qilganlar: bosh harakati bilan anglatiladigan "ha" va "yoq" ma`nolari boshqa xalqlarnikiga nisbatan ularda teskari edi. Chunonchi, ruslarda bosh irg'ash - "yoq" degan ma`noni bildirsa, bolgarlarda "ha" ma`nosini berar, va aksincha, ruslarda boshni yuqoridan pastga qimirlatish "ha" ma`nosini bersa, bolgarlarda bu "yo`q" degani ekan. Bu esa muomala-munosabat chog'ida kishilar o`rtasida tushunmovchiliklarni keltirib chiqarar edi.

Ruslar hayrlashib qolayotganlarida kaftlarini oldinga qilib, qo`llarini ilgariga va orqaga bir necha marta silkiydilar. Inglizlar kaftlarini huddi shu holatda tutib, qo`llarini yonveriga harakatlantiradilar. Italyanlar esa kaftlarini o`zlari tomonga qaratgan holda qo`llarini oldinga va ortga qimirlatadilar. Italyanlarning bunday ishorasi bizningcha olganda hayrlashishni emas, aksincha, "bu yoqqa keling" degan ma`noni anglatadi.

Bizda-o`quvchi yoki student mashg'ulot davomida chiqib gapirish yohud bahsda qatnashishni ihtiyor qilganida qo`lini yuqoriga ko'taradi. Nemislar bunday vaqtda ikki barmog'ini ko'taradilar. Rus studentlari lekciyani juda do`ndirib o`qigan o`qituvchini olqishlash ma`nosida chapak chalsalar, g`arbiy yevropalik studentlar barmoqlarini stolga "tak-tak" uradilar. O`zi haqida gapirganida yevropalik qo`li bilan ko`kragiga ishora qilsa, yapon - burnini ko`rsatadi. Hitoy yoki yapon "boshqalarni hafa qilmaslik uchun" boshiga tushgan kulfatni izhor etishda ...jilmayadilar.

Ayrim "xorijiy" imo ishoralarning bizda hech qanday ekvivalentlari yo`q. Masalan, amerikaliklar g'alabani anglatish uchun qo`llarini yuqoriga ko'tarib, ikki barmoqlarini ko'rsatadilar. Shuningdek, AQShda hayrlashayotganda sherigini "omad yor bo'lsin", "olu oldirma" ma`nosida ikki mushtini juftlashtirib oldinga qilib, bosh barmoqlarini ko'taradilar. Shunisi borki, ekvivalentlari bo'lmagan imo-ishoralar aks ma`noda talqin qilinishi ham mumkin. Masalan, yuqorida qayd etilgan keyingi hayrihohlik ishorasini boshqa millat kishilari nohayrihohlik alomati, tahdid deb biladilar.

Ma`lum bir ma`noni mustaqil ifodalaydigan imo-ishoralardan tashqari, nutqiy fikrning o`rnini qoplay olmaydigan, balki nutq jarayonida uni

"to`ldiradigan", "ta`kidlaydigan", unga alohida "ma`no berishga" hizmat qiladigan imo-ishoralar ham mavjuddir. Ular konkret nutqiy ahborotni ifodalamagani holda, gapiruvchi kishi – "notiq" haqida muayyan ma`lumot berishi mumkin. Aytaylik, agar biron kishi ruscha gapirsa-yu, italyancha imo-ishoralar qilsa, uning gapi mazmunan to`la tushunarli bo`lgani holda, so`zlovchi kishi - horijiy odam ekanligi oshkor bo`lib qoladi. Ruslar va o`zbeklar barmog`i bilan "bir, ikki, uch..." deb sanaganlarida sal qo`llarining barmoqlarini birma-bir mushtlariga buka boshlaydilar - bu vaqtda o`ng qo`l ham ishga solinadi. Bir qancha Evropa mamlakatlarida esa huddi shunday holatda musht qilib bukilgan barmoqlarini birma-bir yoza boshlaydilar, ammo ikkinchi qo`l ishga solinmaydi. Shunisi qiziqki, ruslar va o`zbeklar chimchaloqdan boshlab sanasalar, evropaliklar sanoqni bosh barmoqdan boshlaydilar. Ruslar o`z nutqini ma`nodor qilish uchun faqat bitta (chap yoki o`ng) qo`l bilan ishora qilsalar, chet elliklar, ayniqsa, evropaliklar ikki qo`llarini baravar harakatga keltiradilar, bunda har ikkala qo`l simmetrik holatda ishga, tushadi.

Atoqli shoir N. S. Tihonovning "Vamberi" nomli qissasida boshqa xalqning tili, adabiyoti, tarixi, urf-odatlarini nozik nuqtalarigacha chuqur o`zlashtirgan olim ham turq-tarovati, harakati, yuz ifodasi bilan o`zining ajnabiy kishi ekanligini sezdirib qo`yishi mumkinligiga aloqador ajoyib kuzatishlar bor.

Ital`yan, nemis, fransuz, lotin, fors, arab, yahudiy va boshqa tillarni chuqur bilgan mashhur venger sharqshunos olimi German Vamberi Vengriyadan Turkiya, Eron, Afg'oniston orqali O`rta Osiyoga "afandi", "hoji", "darvish", "shayh" niqobi ostida kelib, "hoji Mahmud - Rishod" nomi bilan og`ir sayohat qiladi. Ana shu "sayohat" davomida bir necha marta uning hayoti tahlika ostida qoladi. Shulardan biri tasvirlangan parcha quyida keltiriladi:

Afg`on amirining o`g`li Yoqubxon saroyida o`tirib parad o`tayotgan maydonini tomoha qilayotganda, uning derazalari ro`parasida mashshoqlar tinmay soz chalardi. Undan nariroqda juldur kiyimli darvishlar to`p bo`lib yurishardi. Ular orasida ko`zlari tiyrak, yuzi jiddiy bir kishi ham bor. U muzika ohangiga moslab oyog`ini o`ynatib turardi.

- Bu odam - yevropalik, - dedi Yoqubxon,- Osiyoda hech kim muzika tinglayotganida oyog`ini o`ynatmaydi. Shundan keyin u haligi darvishni o`z huzuriga chaqirtirdi. Yoqubhon darvish bilan turli muqaddas joylar, darvishlik ta`limoti haqida hamda Afg'oniston to`g'risida uzoq gaplashdi. Keyin Yoqubhon qo`lini Vamberining yelkasiga qo`yib, past ovoz bilan:

- Sen olim odamsan, hoji. Sen men ko`rgan hamma hojilardan ham o`tkir olimsan. Lekin farangsan.

Bu odam yurak-yuragidagini ham payqaganini Vamberi tushundi. Endi hech qanday iloj qolmagan edi, shunday bo`lsa ham u: - Yo`q,- dedi.

Yoqubxon o`zini orqaga tashlab o`ylanib qoldi.

- Yo`q, mayli, shunday bo`lsin. Men seni o`ldirmoqchi emasman. Tinchgina keta qol. Yanglishibman.

Vamberi saroydan qanday chiqqani, Hirotdan qanday ketganini eslay olmadi".

Asarda tasvirlangan xalq rushiy hayotining ana shunday nozik nuqtalarini ba`zan bexosdan ko`zdan qochirgan tarjimon ham o`zga fuqaro muzikasini tinglab "maza qilayotgan" Vamberi ahvoliga tushib qoladi.

Bir misol. Abdulla Qodiriyning "O`tgan kunlar" romanida shunday tasvir bor: "Mirzaboshi kirib hongga qulluq qiladi va Musulmonqulga qarab qo`l bog`ladi".

Mazmuni: Mirzaboshi kirdi va hurmat bilan oldin xonga, so`ng Musulmonqulga ta`zim qildi. Asl nushadagi qulluq qilmoq, qo`ll bog`lamoq, holatlari tushib qolishi natijasida mirzaboshining harakatlari "chala o`zbekcha-nemischa" ma`no kasb etgan.

Ishoralar quyidagicha tasnif qilinadi: 1) nutq o`rnida qo`llanuvchi ishoralar (masalan, "tabriklash" yoki "hayrlashish" ishoralari); 2) nutqni ma`nodor qiluvchi, nutq bilan baravar qo`llanuvchi ishoralar (mas., gapning muhim joylarini ta`kidlovchi ishoralar); 3) shartli simvolik ishoralar (mas., harbiylarning chest' berishi); 4) ekspressiv ishoralar (mas., "tahdid" ishorasi); 5) tasviriy ishoralar (mas., soqol olishni anglatish, gugurt chaqishni bildirish va hokazo).

Tarjimon urf-odatlar va qadriyatlar imo-ishoralar "tili"ni, hususan, har bir xalqning o`ziga xos ishoralari, turqi, yuz-ko`z ifodalarini yahshi bilishi lozim. Yozma adabiyotda ma`nodor kulgi, yo`tal, yuz-ko`z ifodasi, qo`l harakatlari keng yoritiladi va tavsiflanadi. Tarjimada bularni durust anglab, to`g'ri talqin etish juda muhim.

2.3. Badiiy asardagi milliy hodisalar va tushunchalarni tarjimada berilishi

Aslida millat ma`lum hududda barqaror yashab, tarixiy taraqqi`yot davomida rivojlanib kelgan kishilarning ma`naviy-ruhiy birligining vujudga kelishi asosida shakllanadi. Millat-insoniyat taraqqiyotining ob`yektiv mahsulidir.

Millatning abadiyligini, uning barqarorligini ta`minlashning asosiy omili - uning ichki ma`naviy - ruhiy salohiyatidir. Millatlarning salohiyati, qobiliyati, matonati tadbirkorligi va tinimsiz mehnati bilan hozirgi zamon tsivilizatsiyasi, moddiy va ma`naviy madaniyati, ularni boyitish va rivojlantirish yo`llari va usullari yuzaga keltirilgan.

Mutaxassislarining hisoblashicha, yer yuzida uch mingga yaqin millat mavjud . Ular o`z qatorida insoniyatning o`rta hisob bilan 96 % ini birlashtiradilar, to`rt foizi elatlar va qabilalardir. Har bir millatning soni bir necha o`n mingdan bir necha o`n milliongacha boradi.

Millatlarni son jihatidan beshta guruhga bo`linadi:

- a). Buyuk millatlar (xitoylar 1 milliard ikki yuz million; hindlar , arablar, ruslar, yaponlar- har biri yuz milliondan ortiq songa ega);
- b). Katta millatlar (inglizlar, fransuzlar, ispanlar,olmonlar, turklar va h.)
- c). Yirik millatlar (har biri 10 milliondan 50 milliongacha - o`zbeklar, portugallar, polyaklar, efioplar va b.)
- d). O`rta millatlar (har biri bir milliondan 10 milliongacha)
- e). Kichik millatlar (har biri bir necha o`n mingdan to bir milliongacha)

Xalqlar, ular qanchalik ko`p sonli bo`lsa-da, boshqa xalqlardan ustun qo`yilmaydi. Har bir xalq o`ziga yarasha milliy ongi, milliy g`ururi, orzu-umidlari va yana boshqa ko`plab muammoyu-mulohazalari bilan o`zaro bir-biridan etnik va siyosiy - iqtisodiy jihatdan farqlansa-da, ular insoniy qadriyatlar bobida tengdirlar.

Biroq har bir millatning avangard qismi - milatparvarlari o`z xalqlarining porloq kelajagi uchun o`zlarini ma`naviy majburiyatlarini o`zgalardan ko`ra ko`proq his etadilar.

Milatparvarlik - insoniyat taraqqo`yotida millatlarning o`rni va ahamiyatini to`g`ri tushunish, Yer yuzining turli burchaklarida yashayotgan millatlatni, tili,

turmush tarzi, irqi, tashqi qiyofasi, urf-odatlarini, dini, madaniyatining o`ziga xos tomonlaridan qat`iy nazar, hurmat qilish, ularning ozodligi, tengligi, gullab-yashnashi uchun shart-sharoitlar yaratib berish tarafdori bo`lish.

Millatparvarlik har bir kishidan millatlar va milliy munosabatlar sohasida chuqur bilimli bo`lishni talab qiladi. Millatparvarlik barcha xalqlarga barobar hurmat bilan qarash demakdir. Oz millatini boshqalardan ortiq qo`yish, unga imtiyozlar berishni talab qilish yoki aksincha, o`z millatiga, uning tili va madaniyatiga befarq qarash millatparvarlik qoidalariga ziddir.

Har bir shaxsning millatparvarligi avvalambor uning o`z millatiga, tiliga, an`analariga, madaniyatiga va urf odatlari-rasm - rusumlariga bo`lgan munosabatida namoyon bo`ladi.

Millatning yuksalishi - o`zbek millatining gullab-yashnashi tarafdori bo`lgan har bir inson o`z xalqining kamchiliklarini ham ko`ra olishi zarur.

Bu borada biz Ovro`po xalqlaridan o`rgansak arziydi. Ular mehmonlarga o`z yurtlarida bo`lib turgan xato-kamchiliklar haqida so`zlab berishni iltimos qiladilar. o`zlarining xatoliklarini yashirishga emas, uni tizatishga harakat qiladilar. Bu borada 20 asrning suronli 20 yillari vatanparvarlarini eslash foydalidir. Ular - Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho`lpon, Abdurauf Fitrat, Mahmudxo`ja Behbudiy kabi bir qator jadidlar, keyinchalik shu asrning 80-90 yillarida yashab, ijod qilgan ijodkorlar o`z millatlarining va millat rahbarlarining kamchiliklari haqida ham baralla ayta oldilar. Biroq keyinchalik bu jarayon bostirildi-faqat haybarakallachilik yo`liga o`tib olindi: ko`r - korona maqtov, umumiy milliy mahdudlik boshlandi. Bu esa xalqning-millatning-Vatanning rivojini orqaga suradi-xalqni o`zga xalqlar oldida masxara bo`lishiga olib keladi.

Millatparastlik - millatlarning tengligini inkor etib, o`z millatini boshqa millatlardan yuqori qo`yish, unga imtiyozlar yaratishga intilish, uning manfaatlarini boshqa millatlar manfaatlaridan yuqori qo`yish, o`z millati va uning rahnamolariga sajda qilib, unga hamdu-sano o`qishdan bo`shamay qolish, faqat o`z millatini ko`klarga ko`tarib unga xolisona baho berolmaslik, uning kamchiliklari va tarixan tashkil topgan huqsonlarini sezmaslik va h.

Millatparast go'yoki o'z millatiga jon-jahdi bilan xizmat qo'llayotganga o'xshaydi. Aslida esa u millat yoki davlat rahbarlarigagina sodiqlik qo'llayotgan bo'ladi, yoki millatning ichida tanazzul urug'larini sepib turadi. Millatlar ham xuddi insonlar kabidir: har bir millatning ijobiy va salbiy xususiyatlari bo'lib, ayni vaqtda kamchilik va nuqsonlari ham bordir. O'z millati uchun jon kuydiruvchi kishi o'z millatining yutuq va tarixiy xizmatlaridan faxrlanadi, ammo har qadamda unga tanqidiy ko'z bilan boqib, bunday dog'larni tozalashga, bunday nuqsonlarni bartaraf etishga chaqiradi, bu jarayonda faol qatnashadi va shu yo'l bilan o'z millati - xalqining rivojlantirishini tezlahstiradi. Millatparast esa o'z millatiga mahliyo bo'lib, mohiyatan unga zarar keltiradi. Millatchilik bilan millatparastlik o'rtasida uzviy, ko'z ilg'amas aloqalar mavjud.

Milliy an'analar - millat hayotining turli sohalarida namoyon bo'ladigan tushunchalar, belgilar, xususiyatlar, faoliyat turlari, odatlar va hislatlarning avloddan - avlodga o'tish hamda meros bo'lib qolish tarzi.

Milliy an'analar umuminsoniy an'analarning bir millat darajasida namoyon bo'lishidir. Ular orqali har bir millat bir davrdagi o'ziga xos xususiyat, hayot tarzi, madaniyati, fandagi yutuqlari, adabiyoti va boshqa sohalaridagi erishilgan natijalar va yutuqlarini keyingi davrlarda yashayotgan avlodlarga yetkazadi.

Milliy an'analar rang-barangdir. Ularda har bir millatga xos xususiyatlar namoyon bo'ladi. Shu ma'noda milliy an'analar umuminsoniy an'analarning tarkibiy qismidir. Masalan, butun dunyo xalqlariga xos bo'lgan mehmondo'stlik an'anasi o'zbeklarda ruslarnikidan, gruzinlarniki inglizlarnikidan farq qiladi.

Milliy an'analar millatni birlashtirish, avlodlarni bir-biriga zanjirdek o'zaro bog'lash, hamjihatligini ta'minlash vositasidir. Milliy an'analarda millat hayotining o'ziga xosligi, vorislikning muhim jihatlari namoyon bo'ladi. Har bir xalq o'z milliy an'analarining sohibi, ularning saqlovchisidir.

Millatning tanazzuli milliy an'analarning ham tanazzulidir.

Milliy an'analar barcha millatlarda o'ziga xos va betkrordir. Masalan, Sharq xalqlaridagi (arablar, xitoylar, o'zbeklar, yaponlar, koreyslar va b.) urning o'z rafiqasiga va rafiqaning erga munosabati, ularning farzandlariga munosabati,

qarindosh-urug`chilik qoidalari, qavm-qarindoshlik rasm-rusumlari, quda-
andachilik, to`y marosimlari, salomlashuv va xayrlashuv odobi, ovqatlanish va
bozor qilish harakatlari, shahar, xotira marosimlari, qaynona - qaynotaning kelinga
munosabati, kelinning ota-onasiga munosabati, mehmon kutish va kuzatish, bir-
biridan achchiqlangandagi muomalari G`arb (ingliz, nemis, golland, daniyaliklar,
finlar, fransuzlar) va Shimoliy Amerika xalqlaridan keskin farq qiladi. Masalan,
Shimoliy Amerikada yashaydigan kishilar uylanishdan oldin bir necha yil
davomida to`y qilmasdan yashashlari mumkin, qonun ham shunga rozi. Arablarda
esa bu qat`iy qoralanadi.

Hozirgi paytda millatlarning o`zaro yaqinlashuvi sodir bo`layotgan davrda
shaharlar va chekka qishloqlarda yashovch aholining ayni bir marosimni o`tkazish
usuli bir-biridan keskin farq qiladi. Bu hodisai Jahonda sodir bo`layotgan
globalashtirish bilan izohlash mumkin.

Ma`lum xalqqa xos va mansub bo`lgan predmet, tushuncha hamda
hodisalarni ifodalaydigan so`zlar muallifga tasvirlanayotgan personajlari moddiy-
ma`naviy hayotini real, milliy shaklda bayon qilish imkoniyatini beradi, boshqacha
qilib aytganda, bu so`zlar badiiy asarning milliy xususiyatini belgilaydigan asosiy
vositalardan biri hisoblanadi.

Xalqlar turmush tushunchalarini anglatadigan bunday so`zlarni tarjimada
adekvat talqin etish original milliy xususiyatini o`zga tilda qayta tiklashdek
murakkab muammoning eng mas`uliyatli va o`ta mushkul masalaridan
hisoblanadi. Chunki, bunday holda tarjimon oldida o`z xalqi uchun notanish,
nomlari ham tilda mavjud bo`lmagan predmet, tushuncha va hodisalarni to`la-
to`kis etkazib berish, yaxshi anglatish vazifasi ko`ndalang turadi.

Mavjud ilmiy adabiyotlarda xalqlar turmush tushunchalarini anglatadigan
tushunchalarni qaysi vaqtlarda amaliy faoliyatning qanday sinalgan yo`llari
vositasida talqin etish lozimligi to`g`risida yagona fikr uchramaydi. Tarjima ijodiy
jarayon bo`lgani uchun bunday yagona fikrning uchrashi ham qiyin. Biroq turli
ilmiy-tanqidiy mulohaza va xulosalarlar tarjimonga ma`lum darajada yo`l ko`rsatib

turadi, ularning umumiy tasavvurini boyitib, uning amaliyotda yuz berishi mumkin boʻlgan har-xil tasodifiy toʻsiqlarni mohirona yengish malakasini paydo qiladi.

Prof. A. Fyodorovning fikricha, xalqlar turmush tushunchalarini anglatadigan soʻzlar oʻzga tillarga asosan uch xil talqin etiladi:

- 1). Transliteratsiya yoʻli bilan;
- 2). tarjima tili boyligi asosida yangi soʻz yaratish;
- 3) tarjima tilida asliyatga yaqin vositalar tanlash yoʻllari bilan talqin etiladi.

Bolgar olimlari Sergey Vlixov va Sider Florinlarning "Neperevodimoe v perevode" nomli kitobida xalqlar turmush tarzini aks ettiradigan soʻzlarni tarjima qilish yoʻllari olti punktdan iborat deb koʻrsatilgan boʻlsa-da, biroq ularning barchasini A.V. Fyodorov keltirgan yoʻllar asosan qamrab olgan. Biroq, keyingi yillarda chiqarilgan ishlardagi fikrlar va ularda keltirilgan misollar mavzumiz haqida kengroq maʼlumot olish imkonini beradi.

Xalqlar turmush tushunchalarini anglatadigan soʻzlarni tarjimada talqin etish masalasi mavjud ilmiy - tanqidiy ishlarda hamma vaqt amaliy planda tahlil qilish lozim. Malakali tarjimon aksariyat hollarda muayyan kontekstda ishlatilgan xalqlar turmush tushunchalarini anglatadigan soʻzlar funktsiyasini qayta tiklash masalasi bilan shugʻullanadi. Bunda tarjimon originaldagi milliylikni - oʻzga xalq milliyligini tarjima tiliga mansub boʻlgan boshqa tushuncha bilan aralashtirib yubormasligi darkor. Asliyatda berilgan milliy ruh - aytaylik bu Amerika xalqlari turmush tarziga oid soʻz boʻlsa uni Osiyo xalqlari madaniyatiga oid tushuncha bilan bermaslik lozim- yaʼni originalni milliylashtirib qoʻymaslik shart.

Xalqlar turmush tarzini anglatadigan soʻzlar tarjimasida tarjima tilida ularga har jihatdan mos, ayni paytda shu til normalari va madaniyati hazm qiladigan vositalarni tanlash zarur. Bunday tushunchalar bir qator xalqlar tafakkurida ham ayni bir xil aks etishi mumkin. Masalan, oʻzaro yaqin boʻlgan xalqlar-oʻzbeklar va tojiklar, ruslar-ukrainlar-beloruslar, olmonlar-inglizlar-gollandlar yoki kavkaz xalqlari kabi madaniy va iqtisodiy yaqin xalqlarda koʻplab soʻzlar, tushunchalar, qarashlar, orzu-umidlar, xursandchilik va tashvishlari uygʻunligi mavjud. Bu

tillardan o`zaro o`girmalardagi milliy bo`yoqlar uyg`unligi tarjimon uchun ayni muddaodir.

Shuningdek, milliy tushunchalar ifodasi uchun qo`llanadigan so`zlarning ko`pchiligi o`zga tilga ham aynan muvofiq tushunchalar berishi mumkin. Jumladan, Amerika xalqi qo`llaydigan ko`plab so`zlar va milliy ruhdagi tushunchalar jahon xalqlarining globallashuvi natijasida umummilliylik kasb etib bormoqda. Bu so`zlar va iboralar jahon xalqlari lug`atidan allaqachon mustahkam o`rin egallagan. Xalqlar turmush tarzini keng ommalashtirishda televideniya, radio, kino va matbuotning roli beqo`yosdir. Ushbu holatlar tarjimonga bir qator yengilliklar berishi tabiiy.

Bundan tashqari u yoki bu xalq milliy tushunchalarini anglatadigan ko`pchilik so`z va iboralarning ma`no va funktsiyalari mamlakatlarning o`zaro madaniy, siyosiy-iqtisodiy, savdo-sotiq kabi xilma-xil aloqalari natijasida bir qator xalqlarga, shu jumladan tarjima tili sohiblariga ham tushunarli bo`lib qoladi. tarjimonlar bunday so`zlar va harakatlar uchun o`z tillarida so`z qidirib yurishlari shart emas-ularni transliteratsiya yo`li bilan ham beraveradilar.

Transliteratsiya ya`ni so`zlarni tarjima qilmasdan originalda qanday talaffuz qilinsa shunday qilib aytish yoki yozishdir. Bu usul tarjimon uchun eng effektiv usul bo`lib, aslyatning milliy koloritini, ya`ni tarixiy vaziyat hamda personajlar ijtimoiy muhitini siqiq holga qayta tiklaydi. Shuning uchun ham tarjimonlar bu usuldan o`z faoliyatlarida unumli foydalanadilar.

Transliteratsiya usulidan foydalanishning asosiy sababi - originalda qo`llangan milliy xususiyatli leksemaklarni tarjima tilida aks etmaganligi hamda har ikki xalq uchun bir xil predmet va hodisalar nomlarini anglatishidir. Originalning milliy ruhini aks ettirish mas`uliyati ham ikki til vositalarini bir-biri bilan almashtirish imkoniyatini istisno etadi. Pul hamda masofa-uzunlik birliklari, ro`zg`or ashyolari, kiyim-kechak kabi milliy xususiyatga ega bo`lgan tushunchalarni anglatadigan so`zlarni transliteratsiya yo`li bilan talqin etish horijiy muhit va sharoitning kitobxon ko`z o`ngida ochiq-oydin jonlanishini ta`minlaydi. Amerika "dollar"ining , ingliz "funt"i , hind "rupiya"sining, rus "rubli"ning ", yoki

"afg`oniy"ning tarjimalari qilmasdan o`zbek so`miga almashtirib qo`yilishi, ingliz viskisining rus arog`i yoki Sharq sharobiga aylantirib qo`yilishi, Ovro`polikning chopon kiyishi, shlyapaning do`ppi yoki qalpoq bilan almashtirilishi mutloqo noloyo`q usuldir.

Hozirgi kunda o`zbek tili jahonning boy va qudratli tillaridan biriga aylangan ekan, uni bu darajaga yetkazgan omillardan biri lug`at tarkibidagi ko`pchilik o`zga xalqlar turmush ashyolarini anglatadigan so`zlarning transliteratsiya usuli bilan qabul qilinib, tilning har qanday fikrni ifoda eta olish qobiliyatini oshirib yuborganligidir.

Shekspirning "Gamlet" tragediyasida ko`pchilik personajlar Gamletga "mylord"deb murojaat qilgan ekanlar, bu o`rinda ozbeklar albatta "shahzodam" so`zidan foydalangan bo`lur edilar. Ammo o`zbek tarjimonining rus tarjimoniga havas qilib bu so`zni tarjimalari yo`li bilan "milord" shaklida talqin etgani ayrim tanqidchilarga yoqmagan. Jumladan M.L. Lozinskiyning ruscha tarjimasidan foydalangan Maqsud Shayxzoda xuddi shu yo`lni tanlagan.

Hullas, har bir millat o`z tarixiy rivojlanishi va milliy xususiyatidan kelib chiqib, o`z milliy qiyofasini yaratadi. O`zga xalqning qiyofasi - u qanday bo`lsa shundayligicha qabul qilinishi va tarjima tilida ifoda etilishi lozim. Hozirgi davr - millatlarning o`zaro yaqinlashuv va qo`shiluv davrida kishilar o`zga millatlar hulq-atvorini anchayin tushunib olganlar.

III Bob.

Milliy kolorit va tarjima muammolari.

3.1. Badiiy asarning o'ziga xos xarakterli xususiyatlari va ularni tarjimada berilishi.

Adabiyot xalqning hayotini aks ettirar ekan, uning ijtimoiy turmushdagi milliy va umuinsoniy jihatlari badiiy ifodalashi tabiiy holdir. Olmon adabiyotshunos shoiri va olimi Yoxannes Robert Beher aytganidek, adabiyotning milliy mazmuni deganda, shubxasiz, adabiyotning millat oldida turgan tarixiy vazifalari, xalqning milliy manfaatlari bilan bog'liqligi tushuniladi.

Umuman olganda adabiyot xalqning hayoti, kasb-kori, milliy xarakterini belgilaydi. Millat yoki xalqning miliy xususiyatlari abstrakt holdagi tushunchalar emas, balki konkret tarixiy davrning, iqtisodiy-ijtimoiy tuzumning maxsuli.

Milliylik-umummillilikka (internatsionallikka)zid emas,umuminsoniylik esa milliylikni inkor qilmaydi. G'oyaviy-badiiy yetuk asarlarni o'qiganimizda ularda ifodalangan milliylikni umuminsoniylikdan, shuningdek, umummilliylikni (internatsionallikni) milliylikdan ajratgan holda tasavvur qila olmaymiz. Chunki, bunday asarlarda milliylik va umummilliylik bir-biriga qattiq kirishib, yaxlitlik kasb etadi.

Ammo tor mahalliychilik qobig'ida burkangan milliylik milliy turmushning chinakam badiiy ifodasi bo'la olmaydi: u umumbahariylik kasb eta olmaydi.

Shu sababli, aytish mumkinki, san'at asari qanchalik milliy bo'lsa u shunchalik umummilliy hamdir.

Tarjimada milliylikni aks ettirish usullari haqida Sharq Garb olimlari ko'plab tajribalar o'tkazgan va turli qonun-qoidalar yaratgan bo'lsalarda konkret asardagi milliy tushunchalarni o'girishda doimo aniq bir ko'rsatma berib bo'lmaydi.

Hozirgi Sharq tillaridan G'arb tillarida yoki aksincha qilingan tarjimalar tahlili jarayonida tarjimashunoslik fani oldida turgan muammolar, bir qator tarjimashunos olimlarning bu boradagi izlanishlari va xulosalari haqida so'z yuritiladi.

"Kolorit" atamasi lotincha "rang" so'zidan olingan bo'lib, keyinchalik italyan tiliga "colorito", ingliz tiliga "colour" shaklida o'zlashib kirgan. Hozirda bu tushuncha "rang", "bo'yoq" ma'nosidan tashqari badiiy adabiyotda "xususiyat" mazmunida ham qo'llanadi.

Kolorit asarning g'oyaviy mazmuni bilan bog'liq bo'lib, san'atkor ifodalamoqchi bo'lgan g'oya va badiiy obrazni yaqqolroq ko'rsatishiga xizmat qiladi. O'y, niyat, g'oya, muddaoni ifodalashda, obrazni gavdalantirishda bo'yoqlarga alohida e'tibor beradigan rassomlar bejiz "Kolorit rassomlar" deb yuritilmagan.

Bu tushunchaning yana bir ma'nosi biron narsaning o'ziga xos tomonlari majmuini anglatadi. Jumladan badiiy asarning o'ziga xos xarakterli xususiyatlari: milliylik, davriylik, ma'lum joyning o'ziga xos jihatlari ifodasi.

"Lingvistik atamalar lug'atida" Kolorit badiiy asarning o'ziga xos xususiyati, asar personajlarining nutq xarakteristikasi sifatida ta'riflanib, ularning nutqida biron davr tilidan yoki shevalardan olib o'zlashtirilgan tilning o'ziga xos belgilari, biron mamlakat yoki joyning xos tushunchalari (realiy) majmuidan iborat. Masalan, Sharq koloriti, Yevropa koloriti, mahalliy kolorit O'rta asrlar koloritiga oid so'zlar va istilohlar misol tarzida keltiriladi.

Badiiy adabiyotning asosiy materiali so'z ekan, adabiyotshunoslikning bir tarmog'i bo'lgan tarjimada ham faqat lisoniy ashyolar-so'zlar bilan bog'liq kolorit o'rganilmog'i kerak, degan xulosaga kelish mumkin. Bu fikr ham asosan to'g'ri. Biroq masalaning o'zga jihatlari ham e'tibordan chetda qoldirmaslik darkor.

Atoqli o'zbek tarjimashunos olimi G'. Salomovning fikricha, tasviriy sa'nat, musiqa va badiiy adabiyot bir-biri bilan uzviy bo'lib, "rang", "bo'yoq" ularning har uchalarini ham tutashtirib turuvchi unsurlardan biridir.

Milliy o'ziga xoslikni o'zga xalqlarga yetkazishdagi asosiy qiyinchilik xalqlarning bir-birlaridan uzoq masofada yashashlaridir. Territorial yaqin xalqlar turmush tarzida ko'plab o'xshashliklar bo'lishidan tashqari, ularning san'atga, adabiyotga bo'lgan qarashlaridan ham uyg'unlikni sezish mumkin.

Atoqli qirg'iz yozuvchisi Chingiz Aytmatovning "Jamila" nomli qissasida Jamilaning kiygan libosi-"chiy barqut chopon"-o'zbek tilida "chiy baxmal chopon" nemis tilida esa "eine gesteppte Velvetjacke", "eine gesteppte Wattejacke" tarzida o'girilgan. Qirgizlarning issiq kunda mehmonga hech qanday savollarsiz bir kosada ayron tutishlari xolati tasvirlangan epizod tilga olingan "kese",- "kosa"- "die Tasse", "cho`ng kese ayron" - "katta kosadagi ayron"- "Eine Tasse Sauermilch" shaklida aks ettirilgan.

Bu matndagi qirg'izlarning milliy ashyolari "kasa", "ayron", "cho`pon" so'zlari o'zbek tiliga aynan o'tkazilgan va o'zbeklar uchun bu so'zlar tushunarli.

Ammo nemislarda bu tushunchalar bo'lmagani uchun tarjima g'aliz chiqqan. Nemis kishisi ham qirg'izlarning bu jihatlari mohiyatini tezda anglab yetmaydi.

Fikrimizni isbotlash uchun "Jamila" qissasining o'zbek va nemis tillariga qilingan tarjimalarini keltiramiz. Asarda tasvirlangan qirg'iz xalqining milliy xayot tarzi unsurlari o'zbekcha tarjimada aniqroq tushuniladi. Xuddi shu jixatlar esa nemischa tarjimada qusurli aks ettirilgan. Muallif asar qahramoni Jamilani, qishloq ayollari ichidan tanlagan. Qissa ham boshidan oxir qirg'iz ovulida sodir bo'ladi. Jamilaning kiygan libosi, mehmon kutishi, kundalik xayot tarziga oid tushunchalar o'zbek xalqiga bir qadar tanish. Bu ikki xalqning kelib chiqishi, xalq-millat sifatida shakllanishi, asar yozilgan paytdagi har ikki millatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy ahvoli bir-biriga yaqin.

Qadim-qadimdan davom etib kelayotgan quda-qudag'aylik ananalari, umumiy bozor, mehnat vositalari va shakllarinig ko'plab oxhash tomonlari bor. Bularning hammasi birgalikda xalqlarimizning urf-odati, manaviy qarashlarida umumiy o'xhash tomonlarini yaratgan. Xuddi shuning uchun ham Chingiz Aytmatovning qissasida qalamga olingan voqealari o'zbeklar uchun ham tushunarli. Ammo nemis va o'zbek xalqlari bir-biridan tarixan va jug'rofiy olis masofada yashaydilar. Har bir millatning yashash tarzi, urf odatlari, qiziqishlari, mashg'ulotlari, ayniqsa tili va adabiyoti bir-biridan keskin farq qiladi. Bu esa tabiiyki, uy-ro'zgor buyumlari, oziq-ovqat turlari, liboslar, milliy an`analar, tafakkur tarzi kabi tushunchalarni tarjima qilishda katta qiyinchiliklar tug'diradi.

Har bir xalq o'zining iqlim, ijtimoiy-tarixiy sharoitdan kelib chiqib xo'jalik yuritadi. Chunonchi, nemis va inglizlarda qadimdan vinochilik, pivo tayyorlash, turli shirinlik tayyorlash, go'sht va sutni qayta ishlash, o'rmonchilik kabi mehanizmlar mavjud edi. Shuning uchun bu xalqlarda yuqorida aytilgan mehnat mashg'ulotlari ustuvor bo'lib, ularga alohida atamalar berilgan. Jumladan, pivo ichish uchun maxsus krujkalar, stakan turlari mavjud bo'lib, yarim litrgacha hajmda bo'lgan pivo idishi-krujkani "die Mass" deb ataladi. Pivoxonalar ham maxsus yerto'lalarda tashkil etilib, doimiy mijozlar va hurmati megmonlarga katta idishda-"Mass"da pivo keltirilgan.

Nemis xalqining har bir fuqorosiga tushunarli bo'lgan bu jihatlar boshqa xalqlarga ayniqsa sharq xalqlariga noma'lum. Qizig'i shuki, o'zbekda pivo quyilishi lozim bo'lgan cho'zinchoq idish-"der Krug" yoki "die Mass" atamasining muqobili ham yo`q. Biroq, bizga ruslarning "krujka", "stakan" sozlari ancha zamonlardan buyon tushunarli bolib qolgan va tarjimada ham shu so'zlardan foydalanilsa baholi qudratlik kasb etadi.

O'zbek xalqi esa, qadim-qadimdan paxtasi, ipagi, qorako'l terisi, poyafzal va liboslar tayyorlash, xattotlik san'ati bilan ma'lum va mashhur edi.

O'zbekning har biri uchun paxtakorlik san`ati qadrli. Ayniqsa, kuzda paxta hosilini yog'in-sochinli kunlarga qolmay terib olishda butun xalq, yoshu-qari, ziyoliyu-ishchilar paxtakorga yordamga keladi. Shu kezlarda talabalar o'qishni to'xtatib, dalaga-xasharga chiqishi, zavod ishchilari maxsulot chiqarishni to'xtatib, paxta terimiga chiqishi qirg'izlar, qozoqlar uchun ham tushunarli bo'lsa-da, har ishni o'z vaqtida va mutaxassis kishi tomonidan bajarishi lozimligiga o'rgangan yevropalikka buni qanday tushuntirish mumkin!

Paxtadan va chigitdan tayyorlangan buyumlar, oziq-ovqat maxsulotlari, xayvonlar uchun ozuqa va hatto harbiy sohada qo'llaniladigan paxta chiqindilarining nomi bizlarga yaxshi tanish. Lekin, yurtida paxta o'smaydigan rus, ingliz yoki nemischa g'oza, g'ozapo'choq, chigit, tola, ko'rak, ko'sak, pilla, ipak qurtining daxasi va xokozo so'zlarning manosini qay tarzda yetkazish mumkin!

Turgan gapki, ular ipak qurti yetishtirish mashaqqatli mehnatligi, ko'rak bilan ko'sak o'rtasida ham katta farq borligini anglamaydilar.

O'zbek xalqining eng yaxshi odatlaridan biri mehmondorchilikdir. Albatta, mehmon, mehmondorchilik tushunchasi barcha xalqlar uchun xosdir. Ammo, bu xol turli xalqlarda turlicha namoyon bo'ladi. Buni esa xatto so'zning yasashida ham ko'rish mumkin: Masalan, ruslarda bu atama "gostepriimstvo" shaklida yoziladi va "gost" (mehmon) va "prinimat" (qabul qilmoq) so'zlaridan tashkil topgan. Nemislarda esa, "die Gastfreundschaft" sozi "der Gast" va "die Freundschaft" (mehmon va dostlik) so'zlaridan tashkil topgan qo'shma ot bo'lib, o'zbek tilidagi mehmondo'stlik atamasiga aynan mos bo'lib, til paralilizmini xosil qilgan.

Mehmondo'stlik- mehmonni kutib olish shakli haqidagi fikrimizni davom ettirib, atoqli o'zbek yozuvchisi Abdulla Qahhorning "Sinchalak" qissasidan olingan parcha va uning ruscha, olmoncha tarjimalaridan aksini keltiramiz.

"Eshon ustma-ust uzoq yo'taldi. Ro'parada tandirga o't qalayotgan novcha, ko'k ro'molini tomog'idan bog'lab olgan bir kampir Saidaga "keling" dedi-yu yana ishini qila berdi". (S. 19).

Bu parchada o'zbek xalqining eng yaxshi odatlaridan biri har qanday notanish kishini "keling" degan so'z bilan kutib olish odati tasvirlangan.

Mavzuni davom ettirib, shuni ham qo'shimcha qilish mumkinki, uyingizga kirib kelgan kishiga u xoh qorni to'q bo'lsin, xoh yolg'iz, xoh bir guruh bo'lsin albatta dasturxon yoziladi.

Mehmon kelishidan maqsadini o'zi aytmaguncha undan bu haqda so'ralmaydi. Xattoki, mehmonni kuzatish marosimida ham "yana bir oz o'tirsangiz bo'lardi", "yana keling, ko'payishib", "biz ham yaqin orada albatta sizlarni yo'qlab boramiz" degan yoqimli so'zlarni ishlatiladiki, bunday marosimlar Yevropa ahli uchun yangilikdir. Shuning uchun ham tarjima har qancha tirishmasin baribir bunday milliy xosliklarni o'z xalqi tafakkuri va urf-odatlaridan kelib chiqib o'zlashtiradi. Natijada originaldagi mehmon kutish yoki kuzatish marosimida qo'llangan kichik va ahamiyatsizday tuyulgan bir so'zning tarjimada tushib qolishi

nafaqat tarjimaning lisoniy qusuri xisoblanadi, balki, o'sha xalqning milliy an'anasi haqida o'zga o'quvchiga shikasta ma'lumot beradi.

Buni "Sinchalak"ning Konstantik Simonov qalamiga oid ruscha va Edeltraud Bryummer say-harakati bilan tayyorlangan nemischa tarjimalardan ko'rish mumkin.

3.2. Tarjimada muallif tilini to'liq tushunishning ahamiyatlari.

Jahon adabiyoti tarixida shunday o'lmas siymolar bor, ular qoldirgan meros millatlar va elatlar madaniyatining yuksalishida, madaniy hamkorlikning mustahkamlanishida olamshumul ahamiyat kasb etadi. Ana shunday siymolardan biri sharqshunos olim, mohir tarjimon Mihail Aleksandrovich Sal`edir.

Butun umrini Sharq va uning adabiyoti bilan boqlagan Mihail Sal`e Leningrad universitetida o'qib yurgan kezlari danoq arab tilidan tarjimalar bilan jiddiy shug'ullana boshlagan. Uning ilmiy-adabiy faoliyati Toshkentga kelganidan so'ng yanada rivojlandi.

Evropa va Sharq tillarini puhta egallagan olim o'zbek halqi yodgorliklari va buyuk o'zbek olimlari ijodini sinchiklab o'rgandi, matbuotda qator ilmiy maqolalar e`lon qildi. "Muqammad al-Horazmiy - buyuk o'zbek olimi", "Baliqchi haqida ertak"ning noma`lum varianti", "Ming bir kecha"ning ruhi", "Alisher Navoiy - biograf sifatida" va boshqalar shular jumlasidandir.

Olimlik iste`dodi bilan tarjimonlik mahoratini o'zida mujassamlashtirgan Sal`e umumjahon madaniyatini o'zining sara tarjimalari bilan boyitdi. U Maksim Gor`kiyning bevosita yordami bilan "Ming bir kecha"yertaklarini arab tilidan rus tiliga o'girib nashrdan chiqardi. O'rta Osiyoning buyuk allomalari Abu Ali ibn Sinoning "Tib qonunlari", Abu Rayhon Beruniyning "O'tgan avlodlar yodgorliklari", Gulhaniyning "Zarbulmasal", Boburning "Boburnoma" kabi o'lmas asarlarini rus tiliga tarjima qilishda Sal`ening hizmatlari beqiyosdir.

1959 yilda Sal`e tomonidan amalga oshirilgan "Boburnoma" tarjimasi rus tilidagi birinchi va mukammal tarjima hisoblanadi. "Boburnoma"dek ilmiy, badiiy, geografik va tarixiy asarni tarjima qilish tarjimondan katta kuch va mahorat bilan birga eski o'zbek adabiy tilini mukammal bilishlik, asl nusxa uslubini chuqur egallagan bo'lishlik talab etilar edi. Faqat shundagina tarjimaning muvoffaqiyatli chiqishi kutilardi.

Sal`e buni uddasidan chiqdi. Tarjimada Boburning takrorlanmas uslubi: til go'zalligi, soddaligi, nafisligi, ma`nodor va o'tkir fikrlilik, o'ziga hos tasvir vositasi va aforistik ruh saqlab qolingan.

M.Sal`e 1945 yilda yana bir savobli ishga qo`l urdi. Oybekning "Navoiy" romanini rus tiliga tarjima qilib, nashrdan chiqardi.

Oybekning "Navoiy" romani ziddiyatli, keskin voqealar tasviri, teran milliylik bilan mushtarak holda yaratilgan tarixiy asardir. Ushbu tarixiy va memuar asarda buyuk shoir hayoti va ijodi bilan bir qatorda XV asr o`zbek halqi hayoti, urf-odatlari va tabiati aks ettirilgan. Personajlarning harakterlari, sharq bozorlari, dabdabali saroylar, dehqonlarning ayanchli ahvoli, halq isyonlari, shoirlarning majlislari, saroy fitnalari - hamma-hammasi yorqin milliy ruhda tasvirlangan.

Tarixiy mavzuda ijod etishning o`ziga hos murakkabliklari, qiyinchiliklari bor, albatta. Bu yo`sindagi asarni bir tildan ikkinchisiga o`girish tarjimondan katta iqtidor, chuqur bilim - tarix dialektikasini teran talqin qila bilishni talab etadi.

Mohir tarjimon Sal`ening Sharq tillari, hususan, arab, fors, qadimgi o`zbek tillarini puhta bilishi, muallif tilini to`liq tushunishi tarjimaning mukammal chiqishi uchun katta qulaylik tug`dirdi.

Asarda katta mahorat bilan tasvirlangan Navoiy portreti o`zbek adabiyotida yaratilgan mukammal portretdir. Oybek birinchilardan bo`lib, qahramonning tashqi ko`rinishi orqali uning psixologiyasi, harakteri, ichki dunyosini ko`rsatishga erishdi. Yozuvchi shoir siymosini quyidagicha tasvirleydi:

"Shoirning boshida uchli ko`k taqyaga silliq o`ralgan ko`rkamgina salla.

Egnida - ichidan odmi shoyi to`n, ustidan yalang qo`ng`ir movut chakmon... kenggina yuzida doimiy tafakkurning asl ma`nosi, ma`naviy qudrat va yengil, go`zallashtiruvchi bir horg`inlik jilvalanadi. Qovoriqroq qovoqlari ostida qiyg`och ko`zlarida go`yo tafakkur va hayol bilan birga qandaydir iroda kuchi ifodalanadi".

Ijod uslubida Oybek ruhida ko`ra olgan Sal`e asar qahramonlari harakteridagi asosiy hususiyatlarini tarjimada muvaffaqiyat bilan amalga oshira oldi. Navoiyning jiddiy va jonkuyar davlat arbobi bo`lishi bilan birga nozik ta`b va hassos shoir ekanligi ham tarjimada yaqqol ko`zga tashlanadi. Tarjimada asliyatdagi kabi tasvirlar, obrazlar ifodasi to`liq saqlangan: "Na golove Alishera vozvyishalas` chalma, tshatel`no, so vkusom namotannaya na ostrokonechnuyu sinyuyu tyubeteyku. Na plechi byil nakinut` neyarkiy shelkovyiy halat, a poverh nego -

chekmen` iz prostogo temno-serogo sukna.. Na shirokom lice, s neskol`ko vyidavayus`himsya skulami, lejal blagorodnyiy otpechatok bol`shoy duhovnoy silyi. V raskosyih glazah pod pripuhshimi vekami otrajalas` glubokaya myisl`, mechtatel`nost` i sila voli".

Navoiydagi ma`naviy qudrat, tafakkur va iroda, Majdiddindagi mug`ombirlik, fitnachilik, To`g`onbekning ayyor, qashshoq ma`naviy dunyosi, Sultonmurodning teran fikrliligi va Zayniddinning shirinsuhanligi - hamma-hammasi o`z aksini topgan.

Navoiy nutqida halqchil, haqiqatgo`y davlat arbobining ovozi baralla eshitiladi. So`z qurilishi, ifoda shakllari uning keng ma`lumoti, adabiy uslubni to`la egallagani, halq hayoti va tilini mukammal bilishidan darak beradi. Shoirning viqor bilan so`zlashidan ko`hna asrning nafasi urib turadi. "Navoiy" romani tarjimasida har qanaqa asarni tarjima qilish uchun zarur bo`lgan tartiblardan, ya`ni asl nusxa tilini, shu halq hayotini, turmushini bilishdan tashqari yana tarixiy hujjatlarni o`rganishni ham talab etadi. Tarjimon Navoiy zamonini chuqur o`rgangan, o`sha davrdagi tarixiy hujjatlarni Navoiy zamondoshlaridan, Vosifiy va Boburlarning hotiralardan sinchiklab izlagan. Bu chinakkam tarihnavis, izlanuvchan olimning ishi edi. Tarjimon M.Sal`ening o`zbek tilini va boshqa sharq tillarini bilishi, muallif fikrini to`la tushunishi unga asarni mukammal tarjima qilishda qo`l keldi. Mutarjim o`zbek halqining milliy madaniyati, tarixi va adabiyotidan durustgina nazariy bilimga ega edi. Bularning bari Sal`ega davr ruhiga kirib borishida, o`sha zamon ruhini berishda romanda tasvirlangan tarixiy voqealarni tasvirlashda qo`l keldi.

Asarni rus tilida qayta yaratishda tarjimon hozirgi zamon rus adabiy tili leksikasi vositalariga tayanib ish ko`radi. Lekin, ayni vaqtda u sharq adabiy tili boyliklarini rus tilida muvoffaqiyat bilan bera olgan. Muallif nutqi va ayniqsa, personajlar nutqi obrazlilikida, romantik ko`tarinkilik, olijanoblik, purviqorlik yaqqol seziladi.

Asarda tarihiylik va milliylikni belgilovchi muqim vositalar - realiya va arhaizmlar, harbiy atamalar, o'lchov birliklari, maqol, matal, frazeologik iboralar barchasi tarjimada lo'nda, icham, asl nushaga mos va hos tarzda o'girilgan.

"Navoiy" romanining rus tilida nashr etilganiga ham yarim asrdan oshdi. Bu davr mobaynida asar qayta-qayta chop etildi, har gal unga sezilarli darajada o'zgartishlar kiritildi, kamchiliklari to'ldirilib, to'g'rilandi.

Lekin sholi kurmaksiz bo'lmaganidek, Sal'e tarjimasini barcha kamchiliklardan holi, deya olmaymiz. Tarjima, shoirimiz Erkin Vohidov ta'biri bilan aytganda, quyoshning oyga o'hshatib tasvirlanishi. Biroq, mohir tarjimonning ulkan hizmatlarini kamsitmagan holda shuni aytishimiz mumkinki, Mihail Aleksandrovich Sal'e Sharq adabiyotini, hususan, o'zbek adabiyoti durdonalarini Jahon halqlari javonlaridan munosib o'rin olishida ulkan va benazir hissa qo'shdi.

Tarjima chin ma'nodagi san'atdir. San'at bo'lganda ham buyuk va ulkan mehnat hamda mahorat talab qiluvchi, mashaqqatlar evaziga erishiladigan san'atdir. Tarjima haqida biz ko'pincha ahborot tarzidagina gapirishga o'rganib qolganmiz, kim nima tarjima qilganini tushunamiz, qolaversa, matnlarni qiyoslab ularning mos tushish darajasini belgilaymiz. Aslida tarjmani odatiy ma'nodagi tarjimadan ko'ra badiiy ijod sifatida baholash lozim.

Tarjima sermuammo san'at. Uning hususiyati to'g'risida ko'pgina ziddiyatli fikrlar mavjud. Unga amaliy yondashilgandagina murakkab jarayon ekanligini guvohi bo'lamiz. Tarjimaning har bir turi, har bir janri o'z tarjima muammolariga ega. Bularning barchasini tarjimonlarimiz echib, ushbu murakkab universal sohaning rivojiga o'z hissalarini qo'shmoqdalar.

Tarjimada so'zni to'g'ri tanlay bilish ham katta muammo kasb etadi. Chunki, aynan ana shu so'zlarni tarjimon tomonidan noto'g'ri yoki o'rinsiz qo'llanishi tufayli ko'pgina asarlar nafosatiga putur etadi. Masalan, G.Uyells, Mark Tven, Jek London, Daniel Defo, P. Abrahamslar qalamiga mansub badiiy barkamolligi bilan boqiylik kashf etgan ko'pgina badiiy asarlarning o'zbek tilidagi tarjimalari inglizchasiga olib qaralganda asliy asarning umumiy nafosatiga ziynat

bahsh etuvchi ko'pgina badiiy bezaklariga putur yetganligini kuzatamiz. Jumladan, T.Grinning "Tinch amerikaliklar" asari tarjimasida mehrob va chilim so'zlari uchraydi. Vaholanki, Angliyaning Glazgo shahridagi bir muharrirning honasida siniq chilimning yotishi, amerikalik bir kimsaning ringda yaktak yopinib o'tirishi haqiqatdan yiroqdir. Asarning ruscha tarjimasida yuqoridagi so'zlarni sobor', trubka, sviter, kabi leksik birliklar bilan berilgan, qolaversa, tarjimada ma'nolari yechilmay qolgan leksik birliklar ham tez-tez uchrab turadi. Masalan: o'zbekcha: "Otamiz Guyeda mandarin edi";

Ruscha: "On byil mondarinom v Guye";

Inglizcha: "He was a mandarin".

Yuqoridagi jumlaning o'qigan kitobxon "mandarin"ni nima ekan deb hayron bo'ladi. Agar tarjimon o'zbek tili leksikasiga qadam qo'yayotgan bunday neologizmlarga izoh bersa yoki uning ma'nosini "Otamiz Guye shahrida katta mansabdor edi" qabilida bersa, jumla ravon chiqardi.

Ushbu asardagi ma'nolari ochilmay qolgan so'zma-so'z tarjimalarga yana misollar keltiramiz:

Inglizcha: 1) The Southern Grass, to those like my wife who believe may be a favourite hymn or prayer beside the bed.

Ruscha: "... dlya teh kto verit kak moya jena Yujniy Krest eto lyubimiy gimn ili vechernaya molitva".

O'zbekcha: "Janubiy Krest gimn yoki kechki ibodatnoma" (107-bet).

Biz esa quyidagi tarjima muqobilini tavsiya etamiz: "Janubiy salb yulduzlari mening hotinimdek taqvodor ayollar uchun injilning noyob surasi yoki yotish oldidan o'qiladigan bir duo ramzi hisoblanadi".

Inglizcha: 2) a sleeping bag.

Ruscha: spal'nyiy meshok.

O'zbekcha: Uhlaydigan qop (61-bet).

Tavsiya varianti: Ko'rpa (to'shak, uhlash qopi), hoblibos

Har qanday tilning leksikasida o'ziga hos leksik va polisemantik birliklari mavjud. Jumladan, Jek London ingliz tilidagi "gun" so'zining polisemantik hususiyatiga tayanib, uni miltiq va qurol-aslaha ma`nosida qo'llanganini ko'ramiz: Inglizcha: Every hated face was a gun. It was for the guns he fought. He was the guns. He was the revolution. He fought for Mexico.

Ruscha: "...kajdoe nenavistnoe lico vintovka. Za vintovku on seychas primet boy. On sam vintovka. On sam revolyuciya. O boyatsya za vsyu Meksiku".

O'zbekcha: "O'tirgan davlatlarning har biri bir miltiq. U miltiq uchun hozir jangga kiradi. Uning o'zi miltiq. Uning o'zi revolyusiya. U bugun Meksika uchun kurashmoqda".

Parchaning ruscha va o'zbekcha tarjimalaridagi ikkinchi va uchinchi jumlar asliy inglizcha matn ma`nosini ifodalamaydi. Hikoya qahramoni Rivera Revolyusiya arafasida qurol-aslaha sotib olish uchun mablag' topish umidida katta bahs olishuvida qatnashadi. O'z raqibiga nisbatan jismonan, mahorat jihatdan ancha zaif bo'lsa ham g'alaba qilishni maqsad qilib qo'yadi. Qahramonning mana shu ruhiy kayfiyatini ifodalovchi parcha esa, inglizchaga nisbatan quyidagicha tarjima qilinishi kerak edi:

"O'tirgan jirkanch basharalarning har biri bittadan miltiq. U qurol-aslaha uchun kurashmoqda. Uning o'zi qurol-aslaha. Uning o'zi revolyuciya. U butun Meksika uchun kurashmoqda".

Tarjima qilingan asarlarda biz doimo uning kamchiligini topmasdan, balki tarjimonning san`atiga e`tibor qaratishimiz lozim. Chunki, tarjimon o'z tarjimasida yo o'sha halqning yoki o'z halqi turmushidan kelib chiqib o'z ishini amalga oshirishi mumkin, qolaversa, tildagi ma`lum bir tushunchalarni, ba`zi so'z, iboralarning ikkinchi bir tildagi muqobili bo'lmasligi mumkin. Bu esa bevosita tarjimonlarda shu tildagi mavjud iboralarni qo'llanmay qolib asliyatdagi emocional-ekspressivlikning to'la ifodalanmasligiga sabab bo'lmoqda. Masalan, kishining yomon kayfiyati ingliz tilida "to be in a devil of a state" iborasi bilan berilib, o'zbek tilida "shaytoni tutib turmoq", "jazavasi qo'zib turmoq" kabi ma`noga teng keladi. Shuningdek, to last one's eyes, not to open one's lips iboralari

o'zbek tilidagi "ko'z tashlamoq", "miq etmaslik" kabi muqobillar orqali beriladi. Lekin rus tilida "on bo'l v ujasnom sostoyanii" iboralaridan tashqari mazkur iboralarning ma'nosini to'la qoplay oluvchi frazeologik birlik yo'q. Shuning uchun ham bunday iboralar yo so'zma- so'z, yo tasviriy yo'l bilan tarjima qilinadi. Rus tilidagi tarjimalarda mana shunday o'zgarishlarga uchragan inglizcha iboralar so'zsiz o'zbek tilida o'z ifodasini topadi.

Shunday qilib, tarjima katta mahorat va mashaqqat talab qiluvchi jarayon. Uning o'ziga hos muammolari bor.

Tarjima jarayonida tarjimon leksik birliklar, so'zlar bilan ishlaydi. Har bir so'zning tarjimasini to'g'ri va o'rinli ishlatish ham tarjimonning oldiga katta vazifalarni qo'yadi. Tarjimon so'zning mohiyati va mazmunini qanchalik chuqur anglasa, uni o'zgalarga ham shunday tushintira oladi va har bir o'girilgan asar maqsadga muvofiq bo'lib, kitobhonda katta taassurot qoldiradi.

Hulosa

Har bir yangi davr yozuvchilar oldiga o'zining dolzarb vazifalarini qo'yadi, o'zi uchun muhim bo'lgan mavzu va muammolarni ilgari suradi, yangi usul va hayotni idrok etish tarzini singdiradi. Shuning uchun ham insoniyatning ko'p asrlik taraqqiyoti davomida adabiyot, ayniqsa, ishlanadigan material, mavzu nuqtai-nazaridan juda ko'p o'zgarishlarga duchor bo'ladi. Aytaylik, Alisher Navoiy davrida temuriy shahzodalar o'rtasida taht uchun kurash avj olgan bo'lib, ma'rifatparvar, odil shoh haqidagi orzu shu zamonning va shahsan Alisher Navoiyning asosiy ideali bo'lgan.

Adabiyot ijtimoiy hayot muammolari bilan aloqadorligini majburiy qonun darajasiga ko'tarish va faqat shuni talab qilish san'atkor imkoniyatlarini chegaralab qo'yishi ham mumkinligini unutmasligimiz kerak. Aslini olganda, tarihiy jarayon shuni ko'rsatadiki. adabiyotning hamma davr va hamma tuzumlar uchun birday dolzarb bo'lgan umumbashariy muammolari bor va mana shu muammolar ko'tarilgan badiiy adabiyotning umri boqiydir. Masalan, Alisher Navoiyning besh asr ilgari bitgan g'azallari dilimizni yayratadi, chunki ular bir soniyalik o'tkinchi mavzular emas, umumbashariy va hamma davrda ham birday qadrlanadigan mavzularga bag'ishlangan.

Hozirgi kunda adabiyot sohasida ham o'tmish ota-bobolarimizdan bizgacha meros bo'lib qolgan nodir qo'lyozma asarlar, yodgorliklarga tayangan holda yangidan-yangi ko'plab ijodiy ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, Respublikamiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng barcha sohalar qatori adabiyot, ilm-fan sohasida ham ulkan ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi va buni hech kim inkor eta olmaydi. Tarihda yaratilgan va hozirgi zamon ruhida yozilgan asarlarni o'qir ekanmiz, albatta ijodkor yozuvchi birinchi galda o'z o'quvchisini rom etishga, uni o'ziga jalb qilishga, kerak bo'lsa ehtiyot qilishga, ya'ni voqea-hodisani hech bir qiyinchiliksiz obrazlar bilan ifodalab berishga harakat qilganligini sezish mumkin. Bizga ma'lumki, asarni jozibador qiluvchi ko'plab vositalar, rang tasvirlar va usullar mavjudki, yozuvchi albatta, ulardan o'z o'rnida foydalana oladi. Chunki, har bir ijodkorning o'z uslubi bo'ladiki, u mana shu

uslubiga tayangan holda qaysi davrni tasvirlashga kirishmasa o'sha davr bilan birga yashaydi, fikrlaydi.

Hulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, muallif nutqini tarjimada ifodalanishini o'rganish birinchidan badiiy asardagi milliy o'ziga hosliklarni ifodalash usullarini aniqlab tarjimonlar uchun amaliy, nazariy bilimlarini takomillashtirishga yordam beradi, ikkinchidan, bilvosita va bevosita tarjima jarayonida qo'lga kiritilgan boy tajribalarni umumlashtirishga, yo'l qo'yilgan hato va kamchiliklarni aniqlab badiiy asarning g'oyaviy mazmunini chuqurroq anglanishiga olib keladi.

Muallif nutqining asosiy elementlaridan biri milliy realiyalardir. Ularni tarjimada berishning eng samarador usuli transkripsiya va transliteraciya bo'lib, u originaldagi hos so'zni to'liqroq ifodalash imkonini beradi. Transliteraciya usulidan odatda originaldagi milliy o'ziga hos tushuncha ifodalaydigan ma'no tarjima tilida mavjud bo'lmagan hollarda foydalanadi. Masalan, dengizchilikka oid rumpel, machta, shkot, gavan, bort, biteng, yahta kabi, baliqchilikka oid marlin, sardin, makrel, karakatica, bonita, albakore, tunec, umbrica, mako, galano kabi so'zlarning barchasi rus tili orqali o'zbek tiliga ham kirib kelganki, o'zbek tilida ularga mos ekvivalentlar mavjud bo'lmaganligi sababli, tarjimon ularni transliteraciya usulida berishga, matn ostida izoh berishga majbur. Ayrim olimlarning bunday so'zlarni Internasionallashgan leksika deb atab, ular tarjima tili boyligini oshirishga hizmat qilishligini alohida ta'kidlaydilar. Realialarni tarjimada ifodalagan stilistik funkciyasini to'g'ri ifodalashning muhim shartlaridan biri kontekstni to'g'ri tushunishdir. Chunki, realiyalar kontekstdagi funkciyasiga ko'ra turlicha stilistik ma'nolarni anglatishi mumkin. Masalan inglizcha "fathom" - ruscha "morskaya sajen" so'zini o'zbekchaga "dengiz sarjini" deb to'g'ri berib, tarjimon iqtibosda "dengiz sarjiniga" iqtibos bermasdan, balkim "sarjin" so'ziga iqtibos bergan va sarjin va dengiz sarjinlarining uzunlik o'lchovlari farqli ekanligiga e'tibor bermagan tarjimon kitobhonga noto'g'ri tasavvur uyg'otgan. Shuningdek, uzunlik o'lchovi hisoblanmish "inch" - "dyuym" so'zining kontekst orqali qandaydir o'lchamni ifodalanishi tushunilsa ham, uni "bir tutam" deb o'girilishi originalda ifodalangan 25,5 mm. uzunlik o'lchovi haqida noto'g'ri

tasavvurga olib kelgan. Ruscha va o'zbekcha tarjimalarda "Yanki" yutqazishi mumkin emas", "Klivilend Hindilari", "Detroit Yo'lbarlari" kabi iboralar uchraydi. Ingliz kitobhoni bu atamalarni o'qiganidanoq, gap beysbol komandalarining nomlari ekanligini angelaydi. Bunday inglizcha jummalarni tarjima orqali bergan rus tarjimoniga ergashgan o'zbek tarjimoni ham iboralar anglatgan kontekstual ma'nodan uzoqlashib ketgan, natijada o'zbek kitobhoni gap nima haqida ketayotganini qiyinchilik bilan anglashi mumkin. O'zbek kitobhoni "Pahtakor" yutipti" deyilsa darrov milliy futbol jamoasi haqida gap ketayotganligini tushunadi. Biroq, "Yanki" yutqazishi mumkin emas" - deyilsa bu futbolmi, voleybolmi, beysbol jamoasimi noma'lum bo'lib qoladi. Shu sabab, inglizcha kontekstda qisqartirib berilgan ibora ma'nosini o'zbekchada so'z qo'shish yo'li bilan "Yankilar" beysbol jamoasi" deb o'girishga to'g'ri keladi.

Tarjimada ishlatilgan juda ko'p so'zlarning o'zbekcha muqobillari mavjud bo'lgani holda, ularning ruscha ekvivalentlaridan foydalanilganligi bu o'zbek adabiy tilining so'z boyligini ko'paytirish uchun emas, balki adabiy til meyorlarini buzilishiga olib kelishi mumkin. Masalan, vilka, programma, morojennoe, sutka, salfetka, refrejerator, tormoz, buksir, turist kabi

To'g'ri bunday so'zlar rus tilining ta'siri tufayli o'zbek kitobhonlariga ham tanish tushunchalarni ifodalaydi. Biroq, o'zbek adabiy tilida ular ifodalaydigan sanchqi, dastur, muzqaymoq, qo'l sochiq, muzlatgich, to'htatgich, sayyoh kabi leksik birliklar mavjud bo'lgani holda ruscha atamalarni ishlatish haliz tuyuladi. O'zbek tiliga rus tili orqali kirib kelgan va o'zbekcha ekvivalentlari mavjud bo'lmagan tushunchalarni ifodalovchi hos so'zlar mavjud. Tarjimon ularni hech qanday izohsiz transliteraciya usulidan foydalanib o'zbekcha matnga kiritishga majbur. Masalan: prujina, ressor, korpus, motor, bochka, konserva, stakan va h.

Asar tarjimasida beysbol komandalarining nomlari inglizcha "The Indians", "The Tigers", "The Reds", "The white Sox (Socks)" ruschaga "Indeycyi", "Tigryi", "Krasnokojie", "Belyie chulki", dengizdagi chuqurlik nomi "the great well" ruscha "velikiy kolodec" - o'zbekcha "buyuk quduq" deb, diniy atama "Sacred Heart oq Jesus" ruscha "Bojaya serdca", o'zbekcha "Tangri qalbi" deb tarjima usulidan

foydalanib, o'zbekchalashtirilgan realiyalarni ham ko'ramiz. Inglizcha realiyalarning ruschaga va o'zbekchaga bunday o'girilishi realiyalar ifodalagan milliy koloritni yo'qqa chiqarib qo'ygan. Fikrimizcha, ularni ruschada ham, o'zbekchada ham inglizcha transliterაციyalarini berib, matn ostida izohlangani ma'qulroq bo'lardi.

Asliyatda ifodalangan milliy realiyani tarjima tiliga tushunarli o'girish muammosi horijiy muhit va shart-sharoitlarni kitobhon oldiga ochiq-oydin jonlashtirish mas'uliyatini yuklaydi.

Biroq, transliteraciya orqali berilgan so'z izohlanmasa, tushuntirilmasa, kitobhon tasvirlanayotgan voqea-hodisalar va so'zlar bayoniga tushunmay qoladi. Bu o'rinda transliteraciya qilingan so'z kontekst ichida tasvirlanib tushuntirilishi, ma'nosi qavs ichida berilishi, yoki matn ostida izohlanishi mumkin. Bunday transliteraciya asosli transliteraciya deyiladi. Asosli transliteraciya kitobhon tasavvurini boyitadi, nutq boyligini, dunyoqarashini kengaytiradi. Shunday qilib, realiyalar tarjima tilining boyishiga ham sabab bo'ladi. Bularning barchasi asliyatda ifodalangan realiyalarni kitobhon ko'z oldida aynan jonlantiradigan ifoda vositalarini vujudga kelishiga yordam beradi.

Tadqiqotimiz mavzusi "Badiiy asarlar tarjimasida milliy o'ziga hosliklarni ifodalanishi" bo'lib, ushbu ilmiy ishni olib borish jarayonida ko'plab o'zbek va horijiy adabiyotlardan, internet ma'lumotlaridan va terminologik lug'atlardan keng foydalanildi.

Summary

Let me introduce my research work. My theme is “The Problem of translation specific features and acts in the life of the people of the world”. First of all I made a plan for my work. The plan consists of Introduction, three main chapters and eight paragraphs. At the end of the work I wrote my own ideas above the theme in the conclusion. Except these I listed the used literature at the end of the work. The work was written in State language. That’s why at the end of my work I gave brief summary about my work.

In Introduction I wrote about actuality, novelty, purpose, methods which were used in written the work, the results obtained and their novelty, practical value of the work and structure of my work.

The first chapter was named “Giving translation of the words and word-combinations which expressing national and local specific features in literary fiction”

The problem of this chapter was solved in three subchapters.

The first subchapter was titled “The words and phrases which express measure units and currency in literary fiction and their translation”. In this part of my work I wrote about importance using of national and local words and phrases in any work. As we know every author works with his own method. Except this the event expressed in the work belongs to its nation. That’s why there must be used that nations own peculiarities, customs, word-phrases and other specific features.

If we want to give the meaning of any original work in another language we must follow principles of theory of translation. For example, in many places the words and phrases express national and local peculiarities may be translated by the method of transliteration. But in some places we can give their meaning in translation work. If we use transcription or transliteration method in translation work, we must give the explanation of the work under the text.

For example: In English the word “pound” is a measure unit. It explains English national peculiarities in literary fiction. It may be equal to 409 gramm. If we translate this work we may give the explanation the word of “pound” under the

text. Now give attention following example which taken the work by E. Hemingway:

In English - He will weight ten pounds

In Russian - Ves v nem desyat funtov, ne menshe.

In Uzbek - O'ziyam o'ldim deganda o'n qadoqdan kam emas.

Here in Uzbek was used the word “qadoq” to the English word “a pound”. As we know in Uzbek the word “qadod” equal 450 gramm, but “pound” is equal 409 gramm. Except these the word “a pound” in the original gives to the reader national and local expression. That's why it will be good to give the meaning this word under the text in translation of literary fiction.

Next subchapter was titled “Specific features of giving translation of realies belong to the people of the world”. So this unit of my work dedicated to realies and foreign words and phrases, importance their usage and problems of translation into other languages.

Next subchapter is named “The words which expressing national specific features and their translation”. In fact this unit was continuation of the previous one by meaning. That's why I analyze the importance of using of the words which expressing national specific features in original work and the problem of their translation. I think if we translate such works into uzbek we must give explanation some of them under the text.

The Second chapter's named “Specific (peculiar) words concerning to different nations and the problem of their translation”. This chapter consists of three subchapters. The first subchapter is dedicated to solve the importance of using nations customs and own peculiarities by the author and the problem of their translation.

Every work is created with the imagine of the author. The author explain the event in his work with his own heroes. First of all he gives the period which the event happened, place, customs of the nation and etc. In translation first of all we must take into consideration these objects of translation work. In this chapter I wrote about this problem and gave some principles of translation. They are:

1. Transliteration – phonetic adaptation of the words and to add some elements from translation language;
2. To create new word or word combination with morphological combination;
3. To find equivalents from translation language.

Next subchapter is named “National colour and the problem of translation” The problem of this chapter was solved in two subchapters. This chapter was the continuation of previous chapter by meaning. I gave some more examples to explain given ideas.

At the end of my work I gave the list of used literature and in conclusion summed up my work and suggest to use the material in the lyceums and colleges.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karimov.I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T., O'zbekiston-2011, 440-bet.
2. Karimov I.A Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. -T.: O'zbekiston, 2009.- 56 b
3. Karimov I.A Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi. -T.: O'zbekiston, 2010.- 56 b
4. Karimov I.A O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 19 yilliga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zi, "O'zbekiston ovozi" gazetasi, 2010 yil 1-sentyabr;
5. Karimov I.A "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom - taraqqiyotimizning muhim omilidir", "Ishonch" gazetasi, 2010 yil 8 dekabr;
6. Karimov I.A "Barcha reja va das turlarimiz vatanimiz taraqqi yotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi", "Xalq so'zi" gazetasi, 2011 yil 22 yanvar;
7. Karimov I. A. Tarihiy hotirasiz kelajak yo'q - Toshkent: SHarq, 1998.-B. 32
8. Salomov G. Tarjima nazariyasi asoslari -Toshkent: O'qituvchi, 1983. -B. 232.
9. Karimov I. A., Po puti sozidaniya - Toshkent: Uzbekistan, 1996. - Tom 4.
10. Jo'raev K. Tarjima san`ati - Toshkent: Fan, 1982. -B. 60.
11. Salomov G'. va boshqalar, Tarjimon mahorati // Ilmiy ishlar to'plami - Toshkent: Fan, 1979.
12. Salomov G', A`zamov S. Tarjima asoslari // o'quv qo'llanma - Toshkent: adabiyot va san`at nashriyoti, 1976. - B. 88.
13. Milliy istiqlol g'oyasi // Bibliografiya, 1-kitob, -Toshkent: 2001. - B. 31.
14. Milliy istiqlol g'oyasi//Annotatsiyali bibliografiya -Toshkent: 2001. -B. 91
15. Tarjima muammolari//maqolalar to'plami. -Toshkent, 1991. -B. 201.
16. Iqtisod va hayot, -Toshkent: 1997, -№7-8, -B. 2.
17. Inson baht uchun tug'iladi // O'zbekiston Respublikasi prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning hikmatli so'zlaridan -Toshkent: Sharq, NMAK bosh tahririyati, 2001. -B. 128.

18. Amir Temur o'g'itlari //to'plam -Tashkent: Navro'z, 1992. -B64.
19. Ashurov Sh. Ingliz va o'zbek tillarida kesim tipologiyasi. -Toshkent: 2007.
20. Salomov G'. Tarjima tashvishlari. -Toshkent: Adabiyot va san`at,1983. -B.16.
21. Isomiddinov Z. N. Turkiy emas va tarjima masalalari. - Toshkent: Universitet, 1995. -B. 118.
22. Sulaymonov B. Nofilologik o'quv yurtlarida talabalarga ijtimoiy-siyosiy atamalarni o'rgatish tajribasidan // Til va adabiyoti ta`limi -Toshkent: 2000, -№3.
23. Zokirov K. Jamolhonov H. O'zbek botanika terminologiyasi masalalari. - Toshkent: 1966.
24. Usmonov S. O'zbek terminologiyasining ayrim masalalari. -Toshkent: 1968.
25. Akobirov S. Til va terminologiya -Toshkent: 1969.
26. qotamov N. Adabiy atamalarning taraqqiyoti tarixidan. -T: 1969.
27. Musaev q. Badiiy tarjima va nutq madaniyati. -Toshkent: O'qituvchi, 1976, -B. 160.
28. Borisov V. V. Abbreviatsiya i akronimiya. -Moskva: Voenizdat, 1972.
29. Borisov V. V. Korrelyativnaya abbreviatsiya. -Moskva: Voenizdat,1974.
30. Bulvshteyn V. O. Slovar` angliyskih i amerikanskih sokrasheniy. -Moskva: Gos.izd.inostr. i nac. slovarey, 1958.
31. G'afurov I. Tarjimonlik mutahassisligiga kirish // O'quv qo'llanma. -Toshkent: Meqridaryo, 2008, -B.10.
32. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. - Toshkent: O'zbekiston milliy enciklopediyasi, 2007.
33. Mallaev N. M. O'zbek adabiyoti tarihi. - Toshkent: O'qituvchi, 1-kitob, 3-nashri, 1976. -B. 662.
34. O'zbek adabiyoti tarihi. 5 tomlik, 1-tom. - Toshkent: Fan, 1977, -B. 328.
35. O'zbek adabiyoti tarihi. 5 tomlik, 3-tom. - Toshkent: Fan, 1978, -B. 380.
36. O'zbek tilining izohli lug'ati, 2 tomlik, 1-2-tomlar. - Moskva: 1981.
37. Hamroev M. O'zbek tilidan ma`ruzalar majmuasi. - Toshkent: 2007, -B 143.
38. Ma`murov Z. M. O'zbek tilining izohli lug'ati. -Moskva: Rus tili, 1981.

39. Borodin E. I. 500 soʻz siyosiy, iqtisodiy, va texnika terminlarining qisqacha lugʻati. - Toshkent: Oʻzbekiston. 1964.
40. Anushkin N. S. Qisqacha siyosiy lugʻat. - Toshkent: Oʻzbekiston, 1975. -B. 312.
41. Usmonov O. Ijtimoiy-siyosiy terminlar lugʻati. - Toshkent: FAN, 1976.
42. Doʻstmuqammedov J. Inglizcha ijtimoiy-siyosiy va umumiy iqtisodiy tekstlar. - Toshkent: Oʻqituvchi, 1979.
43. Jalolov A., Honazarov Q. Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lugʻat. - Toshkent: Sharq, 1998. -B. 317.
44. Toshhoʻjaev A. Qarshiboev M. Milliy istiqlol gʻoyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar//qisqa izohli tajribaviy lugʻat. -Toshkent: Yangi asr avlodi, 2002, -B. 192.
45. Bektemirov H. Begmatov E. Mustaqillik davri atamalari. -Toshkent: FAN, 2002.
46. Abdullaev M. Abdullaeva M. Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lugʻat // toʻldirilgan uchinchi nashri. - Toshkent: Sharq, 2006, -B.13.
47. Mustaqillik izoqli ilmiy-ommabop lugʻat//ikkinchi nashri. - Toshkent: SHarq, 2000. -B. 320.
48. Qisqacha siyosiy lugʻat//Toʻldirilgan va qayta ishlangan 2-nashri. - Toshkent: Oʻzbekiston, 1983. - B. 423.
49. Sirotina T. A. Bolʻshoy sovremennyiy anglo-russkiy, russko-angliyskiy slovar`, -Doneck: 2003, -str. 564.
50. Internet: <http://www.wikipedia.com/English/compounds/.htm>
51. Internet: [http://www mpsttu.ru/works/english lexicology/ htm](http://www.mpsttu.ru/works/english lexicology/ htm)
52. Internet:<http://www.yahoo.com/english/.htm>